

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**V.A.STATOV, P.R.REYMOV, N.K.MAMUTOV**

**FAZOVİY TAHLİLLAR**

**Oliy ta'lif muassasalarining 5A311502 – “Geodeziya va kartografiya  
(geoinformatika)” magistratura ta'lif yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan  
talabalari uchun o'quv qo'llanma**

**TOShKENT – 2015**

T a q r i z ch i l a r:

Ergeodezkadastr Davlat qo‘mitasi Geodeziya va kartografiya Milliy markazi bosh muhandisi **X.Magdiev**,

Qoraqalpoq Davlat universiteti geografiya kafedrasи dotsenti,  
g.f.n. **K.Allanazarov**,

Mazkur qo‘llanma 5A311502 – «Geodeziya va kartografiya (geoinformatika)» yo‘nalishi mutaxassisligida ta’lim olayotgan magistrantlarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda geografik hisoblashlarga kirish, rastr ma’lumotlar, tasvirlash xususiyatlari, yaqinlik tahlili, chiqarib olish tahlili, tarmoqlar tahlili, fazoviy interpolyatsiya, yuzalar tahlili, ko‘p o‘lchamli ma’lumotlar tahlili kabi bir necha tahlil qilish usullariga va geoaxborot tizimlarida qaror qabul qilishda qo‘llab-quvvatlash kabi mavzularga keng to‘xtab o‘tilgan. Qo‘llanmadan iqtidorli talabalar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar, yosh olimlar va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va boshqa barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**O‘quv qo‘llanma TEMPUS “GE-UZ - Geoinformatika: O‘zbekistonda barqaror rivojlanishga erishishni ta’minlash” loyihasi bevosita ko‘magida nashrga tayyorlandi.**

## **KIRISH**

Hozirgi paytda geografik tadqiqotlarda obyektlarni fazoviy tahlil qilishda bir necha usullardan keng foydalaniadi. Mazkur qo'llanmada fazoviy tahlillarning bir necha usullari haqida umumiy tushunchalar berilgan. Kitobda geografik hisoblashlarga kirish, rastr ma'lumotlar, tasvirlash xususiyatlari shuningdek, fazoviy ma'lumotlarning rastr modellari va kartografik modellashtirish, lokal (nuqtaviy) operatsiyalar, qo'shni operatorlar, zonal operatsiyalar haqida to'xtab o'tilgan. Shu bilan birga yaqinlik tahlili va uni amalga oshirish usullari, jumladan, obyektga yo'naltirilgan yaqinlik vositalari, qatlamlar asboblari va jadvallarda ko'rinishi, evklid oralig'i, evklid oralig'i bo'yicha taqsimlash, evklid yo'nalishi, baholash oralig'i, yo'l masofasi kabi mavzular keng yoritib berilgan.

Mazkur qo'llanmada chiqarib olish tahlili va uning turlari haqida bat afsil ma'lumot berilgan. Uning turlaridan atribut bo'yicha chiqarib olish, shakllar bo'yicha chiqarib olish, doira bo'yicha chiqarib olish, to'g'ri to'rtburchakli shakl bo'yicha chiqarib olish, joylashish bo'yicha chiqarib olish, nuqtalarning joylashishini chiqarib olish, niqob bo'yicha chiqarib olish, nuqtaviy obyektlarga yacheykalar belgisini chiqarib olish, ustma-ust qo'yish tahlili asoslari kabilar keng ochib berilgan.

Shuningdek, kitobda tarmoqlar tahlili haqida ham to'xtab o'tilgan. Bunda tarmoqlar tahlili tushunchasidan tortib geometrik tarmoqlar (kommunikatsiya va daryo tarmoqlari), tarmoqlar ma'lumotlari to'plami (transport tarmoqlari), multimodal tarmoqli ma'lumotlar to'plamlari va uch o'lchamli tarmoqli ma'lumotlar to'plamlari kabi mavzular keng yoritib berilgan.

Mazkur kitobda fazoviy interpolyatsiyaga ham týxtab ýtilgan bo‘lib, unda fazoviy interpolyatsiya va kriging tushunchalariga umumiy ta’rif berilgan.

Kitobda yuzalar tahlili haqida umumiy tushuncha berishdan tortib yuzalarni yaratish, interpolyatsiya asboblari, yuzalar tahlili, relef tahlili, ko‘rinish tahlili, hajm tahlili, TIN dan ma’lumotlarni chiqarish va izochiziqlarni chiqarish kabi mavzular bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Qo‘llanmada ko‘p o‘lchamli ma’lumotlar tahliliga ham keng týxtab ýtilgan bo‘lib, bunda maksimal turda o‘xshash sinflarning ehtimolligi va asosiy komponentlar usuli tahlilining asosiy printsiplari kabi mavzular har tomonlama yoritib berilgan. Shuningdek kitobda geoaxborot tizimlarida qaror qabul qilishda qo‘llab-quvvatlash haqida umumiy ma’lumotlar berilgan.

Mazkur kitob o‘zbek tilida ilk bor chop etilayotganligi sababli ayrim kamchiliklar bo‘lsa, mualliflar barcha taklif va mulohazalaringizni mammuniyat bilan qabul qiladilar.

# **1-bob. GEOGRAFIK HISOBLASHLARGA KIRISH, RASTR MA’LUMOTLAR, TASVIRLASHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

## **1.1. Fazoviy ma’lumotlarning rastr modellari va kartografik modellashtirish**

Ikki o‘lchovli massiv funktsiyalari va taddiqotlari to‘plamiga o‘xshash kartografik algebra (Map algebra) atamasi birinchi bo‘lib amerikalik geograf Dana Tomlin tomonidan taklif etilgan.

Qo‘sish, ayirish, substraktsiyani darajaga ko‘tarish kabi elementar amallar kabi an’anaviy algebraga o‘xshash karta algebrasi rastr maydonlari maxsus kenglik munosabatlari operatsiyalarni bajarishda mantiqiy tarzda joylashtirilgan. Shu kabi vositalar tizimi juda ko‘plab an’anaviy matematik imkoniyatlarni va bunga qo‘sishimcha kartani tasvirlashda oddiy geometrik elementlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Matritsali algebradagi kabi yangi operatsiyalar paydo bo‘ladi. Matritsani transpozitsiyalash, aylantirish hamda diagonal shakliga olib kelish – an’anaviy chiziqli algebrada keng tarqalgan amallarni misol qilishimiz mumkin.

Xuddi shunday, fazoviy ma’lumotlarni qayta ishlash xususiyatlari yangi tipdagi operatorlarni keltirib chiqaradi. Hozirgi vaqtida bu o‘ziga xos til ko‘pgina geoaxborot tizimlarida amalga oshirilgan va fazoviy bog‘langan ikki o‘lchovli massivlar ustida bajariladigan raqamli operatsiyalarni tasvirlash uchun andozaga aylangan.

Ma’lumotlar turlari nuqtai nazaridan ular butun sonli rastrlar va moddiy turdagи rastrlarga bo‘linadi. Ikkinci tur rastrlar, ravshanki, relefning va tabiiy jarayonlarning har xil turlarini modellashtirishda keng qo‘llaniladi. Butun sonli rastrlar overley — tahlillarda, tasvirlarni segmentatsiya qilishda, indeksli maydonlari va shu kabi ishlarni bajarishda foydali bo‘ladi va h.k.

Karta algebrasi, asosiy operatsiyalar;

Fokal operatsiyalar, zonal operatsiyalar;

Geofazoviy modellashtirish, karta algebrasidan foydalangan holda;

Sirtlar, maksimumlar, minimumlar, maxsus nuqtani morfologik tahlil qilish.

Fazoviy ma'lumotlarni massiv shaklida tasvirlash har xil operatsiyalardan va funktsiyalardan foydalanishga imkoniyat yaratadi. Ular yordamida turli darajadagi murakkablikka ega bo'lgan fazoviy fenomenlar asosida geoaxborot modellarini yaratish mumkin. Bunda oddiy rastrli yachevkalar operatsiyalari to'plamidan model yaratilib, bu, o'z navbatida, yachevkalar tavsiflarining o'zgarishiga olib keladi.

Amerikalik olim Dana Tomlin tomonidan Map algebra (matematik ma'noda algebra) yoki kartalar algebrasi deb nomlangan guruhni tashkil etuvchi muvofiqlashtirilgan operatsiyalar to'plami taklif etilgan edi. Hozirgi paytda bunday operatsiyalar va funktsiyalar to'plami deyarli barcha geoaxborot tizimlarida ArcGIS, IDRISI, GRASS, PCRaster kabi rastr ma'lumotlari bilan ta'minlovchi ishlarda u yoki bu ko'rinishda joriy etilgan.

Demak, karta algebrasini amalga oshirish detallari dasturdan dasturga o'tganda o'zgarishga uchrasa ham asosiy kontseptsiyalar o'zgarishsiz qoladi. Rastr geografik ma'lumotlarni qayta ishslash usullari izolyatsiyalangan yachevkalari (nuqtaviy operatsiyalar), qo'shni yachevkalar bilan hisoblaganda (yondosh operatsiyalar, zonal va umumiyl operatsiyalar) analitik va arifmetik funktsiyalar, mantiqiy operatsiyalar, munosabatlar operatori, taqqoslash, yaxlitlash va hokazolarni jamlaydi.

Yondosh operatsiyalardan foydalanish tekislash, chekkalarni ko'rsatish, polosali filtrlar kabi tasvirlash qayta ishslash vositalariga o'xshash sirpanuvchi darchali filtrlarni osongina amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Hududlar bilan ishslash operatsiyalari sirtning muayyan uchastkalari bo'yicha hisoblashlarni bajarishga imkon beradi (masalan, har xil landshaftlarni bir-biridan ajratish bilan).

Ayrim hollarda, masalan, PCRaster dasturlarida operatsiyalarning standart to'plami qo'shimcha funktsiyalar hisobiga kengaytirilgan hollarda bularni geomorfologik va gidrologik tahlillarda, cost-path tahlillari operatorlari deb tushunishimiz lozim.

Kartalar algebrasi operatorlari to‘plami, ma’lumotlarni qayta ishlashda fazoviy va fazoviy-vaqtli tahlillar uchun maxsus moslangan o‘ziga xos til yaratiladi.

Xususan, ayrim hollarda PCRaster dasturlarida bazaviy sintaksis quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi:

Natija = Operator (Ifoda).

Shu bilan birga ifoda rastr ma’lumotlari yoki boshqacha bo‘lishi, ya’ni operatsiyalarning qo‘shilishi bo‘lishi ham mumkin. Masalan, barcha qayta ishlash sohasi ma’lumotlarining maksimal qiyalik miqdorini izlash:

Natija = mapmaximum (slope) (Elevation)).

Qandaydir buyruqlarni murakkabroq dastur konstruktsiyalarga (skriptlar) birlashtirilib, buyruqlarning juda murakkab ketma-ketligini yaratish mumkin. Kartografik modellashtirishning bu usuli odatda statik deb belgilanadi, lekin bunday raqamli geografik modellarda vaqt hisobga olinmaydi.

Fazoviy-vaqtli tuzilishlarni qo‘shimcha dinamik modellashtirish vositalari yordamida yaratish mumkin. Dinamik modellashtirishda har bir yacheyskaning yangi atributlari faqat boshqa atributlarning funktsiyalarigina emas, balki vaqtning ham funktsiyalari sifatida hisoblab topiladi. Bu maqsadda maxsus metatildan foydalilaniladi va uning yordamida foydalanuvchi dinamik modellarni yaratadi. Bu modellar kartalar algebrasining barcha to‘plamlarini o‘zida jamlaydi. Bunday nuqtai nazarning ustunligi shundaki, matritsali operatsiyalarni xilma-xil tashqi dastur usullarida hisoblashlarni taqqoslaganda model geoaxborot tizimlarining ichida amalga oshiriladi va bu tizimga uning barcha tahrir qilish usullari, vizuallashtirishning barcha vositalari, fazoviy ma’lumotlarni almashish to‘liq integratsiyalashgan bo‘ladi.

## 1.2. Lokal (nuqtaviy) operatsiyalar

Lokal operatsiyalar sinfi rastr maydonning faqat alohida olingan bitta yacheykasi bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi, natijaviy rastr yacheykasining

xarakteristikalari faqat atributlarga yoki yacheykalar ichidagi vertikal oqimlarga bog‘liq bo‘lgan funktsiyalarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, lokal operatsiya natijasi rastr maydonidagi qo‘shni yacheykalarning xarakteristikalariga bog‘liq bo‘lmaydi.

Arifmetik, trigonometrik, eksponentsiallik va logarifmlik funktsiyalar lokal operatorning eng oddiy turlari bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga yaxlitlash operatorlari, ekstremum (maksimum va minimum)ni topish, taqqoslash va shartli operatorlar aniq ko‘rinadi. Bu erda mantiqiy operatorlardan ham foydalanish mumkin. Avvalo aniqlangan foydalanuvchi indeksli rastr bilan lokal operatsiyalarni tashqi jadval belgilaridan foydalanib ham bajarish mumkin. Bu erda tashqi jadval bilan indekslar bog‘lanadi.

### 1.3. Qo‘shni operatorlar

Qo‘shni operatorlar rastr yacheykasini qo‘shni yacheykalar bilan bog‘laydi. Bunda yacheyka parametrlari atrofdagi yacheykalar bilan bog‘lanish xarakteristikalariga bog‘liq holda o‘zgaradi. Har bir yacheyka uchun u yoki bu tarzda shu yacheyka bilan fazoviy bog‘langan boshlang‘ich rastr qatlam yacheykalari qiymatlariga bog‘liq ravishda yangi qatlam ko‘rinishida saqlanadi va hisoblab chiqiladi.

Qo‘shni operatsiyalarni beshta asosiy kategoriya ajratish mumkin. Ular quyidagilar:

Birinchidan, yacheykaning yangi qiymatini yacheyka atrofidagi kvadrat sohaning tarkibidagi yacheykalardan foydalanish yo‘li bilan hisoblab chiqish mumkin. Bunday soha sirpanuvchi oyna deb ataladi va shuning uchun bu oynali operatsiyalar deb ham ataladi.

Oynali operatsiyalarni ikki guruhga ajratish mumkin: birinchi guruh sohaning biror statistik o‘lchamini ko‘rsatadi. Masalan, o‘rtacha yoki ekstremal qiymatlar. Ikkinci guruh sirtning topografik xarakteristikalarini hisoblash uchun zarur

bo‘ladi. Bu operatsiyalar sirpanuvchi hududning qiyaligini, jihatlarini va egriligini hisoblab chiqadi.

Ikkinchidan, yacheyskaning yangi qiymati relefning raqamli modeli bo‘yicha hisoblab topilgan oqim yo‘nalishining lokal tarmog‘idagi qo‘shni yacheykaga lokal oqim yo‘nalishini tasvirlab berishi mumkin. Bu sinf oqimning lokal yo‘nalish operatsiyalari deb ataladi.

Uchinchidan, yacheyskaning yangi qiymati berilgan nuqtadan boshlanuvchi egri tekislikda joylashgan barcha yacheykalar qiymatlaridan foydalanib hisoblab chiqilishi mumkin. Bu operatsiya hisoblab chiqish (friction path) deb ataladi. Bu chiziq qarshilikni hisobga olgan holda eng qisqa masofa hisoblanadi.

To‘rtinchidan, yangi qiymatni faqatgina oqim maydonining yuqorisida joylashgan yacheykaldan foydalanish yo‘li bilan hisoblab chiqish mumkin. Nihoyat, qo‘shni operatsiyalarning beshinchi sinfi relefning raqamli modeli bo‘yicha hisoblanayotgan yacheykaldan ko‘rinuvchanligiga asoslangan. Bu sinf odatda ko‘rinuvchanlik tahlili deb nomlanadi.

#### 1.4. Zonal operatsiyalar

Karta algebrasi operatsiyalarining uchinchi guruhiga har bir yacheykaga mos yangi qiymatni berilgan zonani tashkil etuvchi va zonaga birlashtirilgan mavjud rastr qatlamlarining funktsiyasi sifatida hisoblab chiqish kiradi.

Zonal operatsiyalar ajratib ko‘rsatilgan fazoviy hududlar (zonalar) bo‘yicha yacheykalar qiymatlarining agregatsiyalanishini ta’minlaydi.

Operatsiya fokal (nuqtaviy) operatsiyaga o‘xhash, lekin yacheyskaning qiymati shu hudud bilan cheklangan kichik to‘plam yacheykalar asosida olingan. Fokal operatsiyalardan farqli ravishda hududga kirgan yacheykalar fazoviy betartib va ixtiyoriy tarzda olingan ma’lumotlar to‘plami deb qaraladi. Ravshanki, bunday hisoblashlarni olib borish uchun zonalarning o‘zini aniqlash kerak bo‘ladi. Buning uchun berilgan hudud qaysi sinfga tegishli ekanligini aniqlovchi sanoqli butun va mantiqiy qatlamlar xizmat qiladi. Har bir zonal sinf uchun biror statistik funktsiya

hisoblab chiqiladi, ikkinchi qatlam yacheykalarining qiymatlar guruhidagi – o‘rtacha, maksimum, minimum va h.k.

Karta algebrasi operatsiyalarining to‘rtinchi guruhi – bu global operatsiyalardir. Ular karta bilan biriktirilgan barcha rastr yacheykalarining yoki yacheykalarning funktsiyasi sifatida faqatgina fazoviy bo‘lmagan yagona qiymatini biriktiruvchi operatsiyadir.

Karta algebrasidagi dinamik modellashtirish – bu vaqt davomidagi rivojlanuvchi jarayonlarni modellashtirishdir. Bunda har bir qadam uchun vaqt bo‘yicha operatsiyalar to‘plami vaqt bo‘yicha avvalgi qadam natijalari, shuningdek, vaqt bo‘yicha har bir qadamning atributiv ma’lumotlarini aniqlab beruvchi tashqi ma’lumotlar hisobga olinib. operatsiyalar ketma-ket takrorlanadi.

Bu funktsiya PCRaster dasturida amalga oshirilgan va u ArcGIS dasturida tashqi skriptlardan foydalanib (masalan, Python tilida) amalga oshirilishi mumkin.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Geografik hisoblashlar haqida tushuncha bering.
2. Lokal operatorlar deganda nimani tushunasiz?
3. Qo‘snilik operatorlari deganda nimani tushunasiz?
4. Fazoviy ma’lumotlarning rastr modellari va kartografik model-lashtirish deganda nimani tushunasiz?
5. Zonal operatsiyalar deganda nimani tushunasiz?

## **2-bob. YAQINLIK TAHLILI**

### **2.1. Obyektga yo‘naltirilgan yaqinlik vositalari**

GAT da beriladigan asosiy savollardan biri “nimaning yaqinida nima joylashgan?”

Masalan:

Bu quduq axlatxonaga qanday yaqinlikda joylashgan?

Daryodan 1000 metr oraliqdan qandaydir yo‘l o‘tadimi?

Ikkita joyning oralig‘i qanday?

Qaysi obyekt yaqin, qaysi biri juda uzoqda joylashgan?

Qatlamdagi har bir obyektlarning o‘zaro oralig‘i qanday va boshqa qatlamdagи obyektlar oralig‘i qanday?

Ko‘chada bir obyektdan ikkinchi obyektgacha bo‘lgan eng qisqa yo‘l qaerdan o‘tadi?


Yaqinlik tahlili vositalari ishlatiladigan kiruvchi ma’lumotlar turlariga qarab ikki toifaga ajratilishi mumkin: fazoviy obyektlar va rastrlar. Fazoviy obyektlar bilan ishlash vositalari chiquvchi ma’lumotlar tiplari bo‘yicha ajralib turadi. Masalan, bufer vositasi chiqishda poligonal fazoviy obyektlarni keltirib chiqaradi, ularni keyin ustiga qo‘yish vositalari va fazoviy tanlashda joylashishiga qarab qatlamlarni tanlash kabi asboblardan foydalanish mumkin. Eng yaqin obyekt kiruvchi fazoviy obyektlar uchun atributni o‘lchash vositasini qo‘sadi. Evklid oralig‘i rastri bilan ishlash vositalari boshlang‘ich yacheykalarining markazigacha bo‘lgan masofani o‘lchaydi. Masofani baholash rastri vositalari manba bilan belgilangan joygacha bo‘lgan oraliqda har bir yacheykaning joylashgan bahosini hisoblaydi.

Fazoviy obyektlar ma’lumotlari bo‘yicha yaqinlik munosabatlarini aniqlash uchun yaqinlik tahlili to‘plami vositalaridan foydalanish mumkin. Bu vosita chiquvchi ma’lumotlarni jadvallar yoki fazoviy obyektlarning buferlari yordamida oladi. Buferlar, odatda, fazoviy obyektlarning muhofaza qilinadigan hududlarini

tasvirlash yoki ta'sir zonalarini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Masalan, siz maktabgacha bir kilometr masofada bo'lgan hududni bufer bilan o'rab, bu bufernii uzoqda yashaydigan barcha o'quvchilarni tanlab olishingiz va shuningdek, ularni maktabga olib borishni va olib qaytishni rejalashtirishingiz mumkin. Siz to'plamli bufer vositasini uzoqlik sinflar bo'yicha fazoviy obyektning atrofidagi hududlarni tasniflash uchun foydalanishingiz mumkin. Masalan, endi yuz beradigan tahlil uchun yaqin, o'rtacha, katta masofa. Buferlar ayrim vaqtarda tadqiq qilinayotgan berilgan ma'lumotlarni kesib olish yoki kritik masofa oralig'idagi fazoviy obyektlarni keyingi tahlil jarayonidan olib tashlash uchun foydalaniladi.


Bufer (Buffer) va to'plamli bufer (Multiple Ring Buffer) kirish obyekti atrofida ko'rsatilgan masofada fazoviy obyektlar hududlarini yaratadi (yoki bir necha belgili ko'rsatilgan oraliqlarda).

1-rasmda nuqta va chiziqlar atrofidagi buferlar namunalari keltirilgan:



**1-rasm.** Nuqtalar va chiziqlar atrofidagi buferlar


2-rasmda to'plamli bufer namunasi keltirilgan:



**2-rasm.** Týplamli bufer namunaları


Buferlardan boshqa sinfdagi fazoviy obyektlar ichidan fazoviy obyektlarni tanlash uchun foydalanish yoki ularni ustiga qo‘yish vositalari yordamida bufer zonaga tushadigan obyektlar bilan biriktirish mumkin.

3-rasmda poligonal fazoviy obyektlar bilan qoplangan buferlar bilan konturlashgan nuqtalarga misol keltirilgan:



**3-rasm.** Fazoviy obyektlar bilan qoplangan buferlar bilan konturlashgan nuqtalar


4-rasmda bufer zonasini bo‘yicha kesib olingan tadqiq qilinayotgan hudud namunasi keltirilgan:



**4-rasm.** Bufer zonasi bo‘yicha kesib olingan tadqiq qilinayotgan hudud

Eng yaqin obyekt vositasi fazoviy obyektlarning bir sinfidagi har bir nuqtadan boshqa sinfidagi nuqta yoki chiziqqacha bo‘lgan masofani hisoblaydi. Siz bu vositadan turistik marshrutlardagi yovvoyi hayvonlarni, kuzatilayotgan joyga eng yaqin suv oqimini yoki eng yaqin avtobus bekatini belgilash uchun foydalanishingiz mumkin. Eng yaqin obyekt vositasi shuningdek, obyektning identifikatorini va qo‘sishimcha tarzda eng yaqin obyektga qarab koordinatalarni hamda burchagini qo‘sadi.

Quyidagi 5-rasmda daryolarni, obyektlarga yaqin nuqtalarni ko‘rsatuvchi namuna keltirilgan. Nuqtalar daryogacha oraliq bo‘yicha ranglar bilan darajalangan va masofa qiymati yozib belgilangan.



**5-rasm.** Eng yaqin obyektlarning tasvirlanishi

6-rasmda daryoning eng yaqin fazoviy obyekti gacha bo‘lgan masofani ko‘rsatuvchi nuqtalar atributlari jadvalining bir qismi berilgan.

ID тузилиши	Яқинлик масофаси	Якин бурчаги
0	56	18.394009
1	122	-31.848772
2	195	-2.41069
3	48	-35.72168
4	105	-13.856518
5	177	-10.703785
6	75	-23.185714


## 6-rasm. Nuqtalar atributlari jadvalining bir qismi

Nuqtalar orasidagi masofa vositasi fazoviy obyektlarning bir sinfidagi har bir nuqtadan boshqa fazoviy obyektlar sinfidagi qidiruv radiusi ichidagi nuqtalargacha bo‘lgan masofani hisoblab chiqadi. Bu jadvaldan statistik tahlil uchun foydalanishi yoki u boshqa sinfdagi fazoviy obyektlar nuqtalarigacha bo‘lgan nuqtalar orasidagi masofani ko‘rsatish uchun fazoviy obyektlarning bir sinfiga biriktirilishi mumkin.

Siz nuqtalar orasidagi masofa vositasidan ikki obyekt to‘plami orasidagi yaqinlik munosabatlarini tadqiq qilishda foydalanishingiz mumkin. Masalan, siz biznesning bir qancha yo‘nalishlari (teatrlar, restoranlar, muhandislik kompaniyalari, kompyuter do‘konlari)ni ifodalovchi bir nuqtalar to‘plami bilan muammoli kommunal obyektlar (axlatxona, singan derazalar, devorlardagi rasmlar) ning joylashishini ifodalovchi boshqa nuqtalar to‘plami orasidagi masofalarni taqqoslappingiz mumkin, bunda qidirish chegarasi lokal munosabatlarni aniqlash uchun 1 km atrofida bo‘ladi. Siz yakuniy jadvalni biznes yo‘nalishlari va mahalliy muammolar atributlari jadvaliga qo‘sib umumiy statistik qiymatini hisoblab chiqishingiz mumkin. Shunday qilib, bir nechta juft obyektlar uchun boshqalariga nisbatan aniqroq bog‘lanishni topish va olingan natijalarni communal axlat konteynerlarini joylashtirishni yoki politsiya patrullarining marshrutlarini rejallashtirish uchun qo‘llashingiz mumkin.

Shuningdek, nuqtalar orasidagi Masofa vositasidan nazorat qudug‘idan ma’lum masofada joylashgan barcha suv manbalarigacha masofani va yo‘nalishini topish uchun foydalanish mumkin.

Quyida nuqtalar orasidagi masofani tahlil qilish keltirilgan. Fazoviy obyektlarning bir sinfidagi har bir nuqta uchun ID belgilanadi, fazoviy obyektlarning boshqa sinfda eng yaqin joylashgan nuqtagacha masofa va yo‘nalish aniqlanadi (7-rasm).



**7-rasm.** Nuqtalar orasidagi masofa

Quyida nuqtalar orasidagi masofa jadvali keltirilgan bo‘lib, undan bitta nuqtalar to‘plami bilan bog‘langan va 55 nomli nuqtagacha bo‘lgan eng yaqin nuqtalarni tanlash uchun foydalilanadi (8-rasm).


Маълумотлар киритилган нуқта	Якин нуқта	Масофа
56	47	11,320
114	48	14,274
49	51	14,327
109	53	10,107
81	55	12,906
83	55	11,395
61	56	8,563

**8-rasm.** Nuqtalar orasidagi masofa jadvali

Har ikkala eng yaqin obyekt (Near) va nuqtalar orasidagi masofa (Point Distance) vositalari masofa haqida nuqtaviy obyektlar atributlarining kirish

jadvalida eng yaqin obyekt (Near) vositalari uchun raqamli atributlar ko‘rinishida va kirish sinfi obyektlarining ID sini va eng yaqin obyektlarni nuqtalar orasidagi Masofa vositalari uchun o‘z ichiga olgan alohida jadval ko‘rinishida axborotni qaytaradi.

Tissen poligonlarini yaratishda (Create Thiessen Polygons) vositasi qulay poligonal fazo bo‘ladi va uni eng yaqin nuqtaviy obyektga nisbatan taqsimlab, poligonal fazoviy obyektlarni yaratadi. Olinadigan natijalar rastrlar uchun Evklid oralig‘ini taqsimlash vositasining natijalariga o‘xhash bo‘ladi. Tissen poligonlari ba’zan interpolatsiya bilan birga generalizatsiya qilish uchun hududga yaqinligini oddiy o‘lhash to‘plamidan foydalansa bo‘ladi. Tissen poligonlari ayrim paytlari proksimal poligonlar sifatida ham ma’lumdir. Ular berilgan poligonning uchidagi nuqtasiga yaqin turgan nuqtada joylashgan xudud kabi suv to‘planish maydonlarini modellash uchun qo‘llanilishi mumkin. Quyida nuqtalar to‘plami uchun Tissen poligoni misol tariqasida keltirilgan (9-rasm).




**9-rasm.** Tissen poligoni

Siz Tissen poligonlaridan o‘lhash vositalari to‘plami yordamida olingan o‘lhashlarni generalizatsiya qilish uchun foydalanishingiz mumkin. Ulardan iqlimni o‘rganishda, ularning atrofidagi hudularni va xizmat ko‘rsatish zonasidagi do‘konlar qatorlarini modellashtirishda foydalansa bo‘ladi.

## 2.2. Qatlamlar vositalari va jadvallarni tasvirlash

Qatlamda joylashishi bo‘yicha tanlash (Select Layer By Location) GAT dagi tanlab olingan fazoviy obyektlar to‘plamini bitta qatlamda obyektlarni qidirish yordamida o‘zgartirishga imkoniyat beradi. Vektor ma’lumotlar bilan ishlashda boshqa vositalarga nisbatan qatlamni joylashishi bo‘yicha Tanlash vositasi yangi fazoviy obyektlar yoki atributlarni yaratmaydi. Qatlamdan joylashishi bo‘yicha Tanlash vositasi Qatlamlar va jadvallarni tasvirlash vositalari guruhida bo‘ladi. Shuningdek, uni Tanlash Menusidan ArcMap ilovasidan tanlab olish mumkin.

10-rasmida boshqa nuqtalarga qaraganda tanlangan masofalar chegarasida tanlab olingan nuqtalar namunalari keltirilgan. Buferlar esa bu masofani faqat sxematik belgilash uchun ko‘rsatilgan.



**10-rasm.** Boshqa nuqtalarga nisbatan masofalar chegarasida tanlab olingan nuqtalar


Siz hududdagi barcha magistrallar yoki barcha yaylovlarni tabiiy yong‘in o‘chog‘idan 5 km masofada joylashganligini topish uchun joylashish bo‘yicha Tanlash vositasidan foydalanishingiz mumkin.

Chiziqli tarmoqlar bo‘yicha masofalarni tahlil qilish vositalari keyingi mavzuda keltiriladi.

### 2.3. Evklid masofasi

Evklid masofasida eng qisqa usul bilan o‘lchangan masofa yoki to‘g‘ri chiziqli masofa beriladi. Kiruvchi ma’lumotlarning berilgan to‘plamlari uchun har bir obyektgacha minimal masofa har bir yacheyka uchun hisoblanadi.

11-rasmda Evklid masofasi vositasining kirish ma’lumotlari namuna sifatida berilgan. Ularda rastr yaqin joylashgan daryo obyektigacha bo‘lgan masofa ko‘rsatilgan.




**11-rasm.** Evklid masofasi vositasi kirish ma’lumotlarining berilishi

Siz Evklid masofasidan o‘rmon yong‘ini modelining bir qismi sifatida foydalanishingiz mumkin. Yong‘in paydo bo‘lish ehtimolligi mavjud bo‘lgan yong‘inning markazigacha bo‘lgan masofaning funksiyasi bo‘ladi.

### 2.4. Evklid masofasi bo‘yicha taqsimlash

Evklid masofasi bo‘yicha taqsimlashda hududlar bo‘lib chiqiladi va har bir yacheyka eng yaqin kirish fazoviy obyektga nisbatan joylashtiriladi. Bunday amal vektor ma’lumotlar bilan ishlaganda Tissen poligonlarini yaratishga o‘xshash bo‘ladi. Evklid masofasi bo‘yicha taqsimlash berilgan nuqtalarga eng yaqin joylashishni ko‘rsatuvchi poligonal rastr zonalarini yaratadi. Agar siz taqsimlash uchun maksimal oraliqni to‘g‘ri aniqlagan bo‘lsangiz, natijalar fazoviy boshlang‘ich obyektlar buferlarini yaratishga o‘xshash bo‘ladi.


Quyidagi rasmda Evklid masofasi bo‘yicha taqsimlash tahliliga misol keltirilgan, bunda chiqish rastrining har bir yacheykasiga eng yaqin nuqtaviy fazoviy obyektiga identifikator (ID) berilgan:



**12-rasm.** Evklid masofasi vositasi yordamida modellashtirish

Aholi zinchiliklar manzilgohlar to‘plami uchun suv to‘plash havzasi yoki ta’sir qilish zonalarini modellashtirishda Evklid masofasi vositasidan foydalanishingiz mumkin (12-rasm).

13-rasmda Evklid masofasi vositasi bo‘yicha taqsimlash vositasi yordamida tahlil namunasi keltirilgan. Bunda har bir yacheykada belgilangan masofada eng yaqin nuqtaviy fazoviy obyektning (ID) identifikatori berilgan:



**13-rasm.** Evklid masofasi vositasida taqsimlashni tahlil qilish


Har bir yacheykaning rangi yaqin nuqtaning belgisini ko‘rsatadi; ikkinchi rasmda maksimal masofa buferlarga o‘xshash zonalar taqsimlanishini cheklaydi.

Siz Evklid masofasi bo‘yicha maksimal masofa bo‘yicha taqsimlashdan suv oqimlari atrofida, bufer zonalari to‘plamini yaratishda foydalanishingiz mumkin.

## 2.5. Evklid yo‘nalishi

Evklid yo‘nalishi har bir yacheykaga qiymat beradi, u eng yaqin kiruvchi fazoviy obyektlarning yo‘nalishini aniqlaydi.

14-rasmda Evklid yo‘nalishining chiqish ma’lumotlariga misol berilgan. Bu erda rastr eng yaqin daryo obyektining yo‘nalishini ko‘rsatadi.



**14-rasm.** Evklid yўnalishining chiqish ma’lumotlari

Siz Evklid yo‘nalishidan quyidagi savolga javob berish uchun foydalanishingiz mumkin: Xohlagan barcha berilgan yacheykalardan eng yaqin do‘konga borish uchun qancha yo‘l bosib o‘tish kerak?


## 2.6. Baholash masofasi

Evklid masofasidan farqli ravishda baholash masofasi vositalari operatsiyalarni masofa bilan bajaradi. U bahosi bo‘yicha o‘lchanishi mumkin


(masalan, energiya iste'moli, qiyinchilik yoki xavf-xatarlar) va sayohatning bahosi hududning holatiga qarab farqi bo'ladi.

Berilgan nuqtalar to'plamini Evklid masofasi bo'yicha taqsimlash vositalari yordamida ular orasidagi sohalarga shunday bo'lib yuborishingiz mumkinki, kirish ma'lumotlarining har bir zonasini berilgan soha nuqtalariga yaqin turgan barcha sohalarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lar edi. Biroq, agar nuqtalararo sayohat bahosi ular orasidagi sohalarning tasinfiga bog'liq ravishda o'zgaradigan bo'lsa, u holda berilgan joylashish sayohat bahosiga bog'liq ravishda boshqa nuqtaga yaqin bo'lishi kerak.

Quyida baholash masofasi bo'yicha taqsimlash vositasidan foydalanish namunasi keltirilgan (15-rasm). Bu erda tuproqning turiga qarab ko'chish bahosi ortib boradi. Qora rang bilan ko'rsatilgan hududlar o'tish qiyin bo'lgan botqoqliklar, ochiq ranglar bilan belgilangan xududlar o'tish engil bo'lgan hududlarni bildiradi.



**15-rasm.** Baholash masofasi býyicha taqsimlash vositasidan foydalanish Evklid taqsimlash vositasidan foydalangan holda masofani baholash orqali taqsimlash natijalarini taqqoslab ko'ring (16-rasm).



**16-rasm.** Evklid taqsimlash vositasidan foydalanib taqsimlash natijalarini taqqoslash

Ayrim hollarda masofa bilan ishslashning bu usuli to‘g‘ri chiziqlar yordamida hisoblashga nisbatan ancha murakkabdir, lekin bu usul bir jinsli bo‘lmagan sirtlarni modellashtirishda juda samarali hisoblanadi.

## 2.7. Yo‘l masofasi

Bu masofani hisoblab chiqish yo‘l masofasini baholash vositasining imkoniyatlarini kengaytiradi, rastr bahosidan foydalanishga imkon beradi, shuningdek, tahlil qilishda tepaliklar bilan kesishishda qo‘sishimcha masofani hisobga olishga, ya’ni turli qiyaliklar bo‘yicha yuqoriga va pastga harakatlanish bahosini, yana qo‘sishimcha gorizontal omil bahosini hisobga olishga imkon beradi.

Masalan, uzun tog‘ yo‘lidagi ikki jooning bir-biridan masofasi tog‘ ortidagi boshqa vodiydagи ikki joy orasidagi masofadan ancha katta bo‘lishi mumkin. Lekin vodiydagи hududni kesib o‘tish umumiylahosini tog‘ yo‘liga nisbatan ancha arzon bo‘lishi mumkin. Bu umumiylahoga har xil omillar ta’sir etishi mumkin, masalan, tog‘dagi butalar oralig‘ida yurish vodiydagи o‘t-o‘lanlar orqali yurishga nisbatan ancha qiyinroq.


Tog‘da shamol yo‘nalishida yurish shamolga qarshi yurishga qaraganda osonroq va vodiyda esa shamol yo‘nalishida yurish yanada osonroq.

Tog‘da yo‘l marshrutining ikki oxirgi nuqtalari orasidagi masofa uzoqroq, chunki yo‘l past-balandliklardan o‘tadi.

Qiyalik yoki keskin ko‘tarilgan yo‘ldan burilib (aylanib) tushish to‘g‘ri tushishga qaraganda osonroq bo‘lishi mumkin.


Yo‘l masofasi vositalari ko‘chish bahosini bir necha alohida aniqlash mumkin bo‘lgan komponentlarga ajratish yordamida murakkab muammmolarni modellashga imkon beradi. Bunday komponentlar quyidagilar: baho rastr (baho vositalarida ishlashingiz mumkin), orttirish rastri, undan sirt bo‘yicha ko‘chishda masofani hisoblash uchun foydalilanadi, gorizontal omillar rastri (masalan, shamol yo‘nalishi) va vertikal omillar rastri (masalan, relef balandliklari rastri). Qo‘sishma qilib, siz gorizontal va vertikal omillar bahosi rastr omillariga nisbatan harakat yo‘nalishiga qanday bog‘liq bo‘lishini nazorat qilishingiz mumkin.

Quyida yo‘l masofasi bo‘yicha taqsimlash (Path Distance Allocation)ga misol keltirilgan, bunda baholashga bir necha omil ta’sir ko‘rsatadi (17-rasm).



**17-rasm.** Yēl masofasini taqsimlashda uning bahosiga ta’sir etuvchi omillar


18-rasmida Evklid masofasi bo‘yicha taqsimlash vositasidan foydalangan holda va yo‘l masofasini taqsimlash yordamida olingan natijalar bilan taqqoslangan.



**18-rasm.** Evklid masofasi bo‘yicha taqsimlash vositasidan foydalangan holda va yo‘l masofasini taqsimlash yordamida olingan natijalarning taqqoslanishi


Koridor (Corridor) ikki xil sirt masofasi bahosi yordamida ko‘chish bahosini joylashishlar orasidagi yacheykalarni izlaydi va ko‘chish bahosini kamaytiradi. Masalan, siz hududlarni identifikasiya qilish uchun hayvonlar joydan- joyga ko‘chganda kesib o‘tishi mumkin bo‘lgan xududlar uchun shu vositadan foydalanishingiz mumkin.

Quyidagi landshaft orqali ko‘chish bahosiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan ikki xil omillar to‘plami misol sifatida keltirilgan. Bu holatda er qoplami tipi bir omil bo‘lsa, boshqasi qiyalik bo‘ladi (19-rasm).




**19-rasm.** Ikki xil omillar to‘plami

Omillarning har biri uchun bir yoki bir necha joydagi ko‘chish bahosini aniqlashda baholash Masofasi (Cost Distance) vositasidan foydalanish mumkin (20-rasm).



**20-rasm.** Baholash Masofasi vositasida bir necha joydagi ko‘chish bahosini aniqlash.


Koridor (Corridor) baholash Masofasi ikki xil omil uchun tahlil natijalarini birlashtiradi. Natijalar, birlashtirilgan baholar ma’lum darajadan ortiq bo‘lmagan xududlarni izlash uchun qayta sinflashtirilishi mumkin. Bunday hududlar hayvonlar ko‘chishi uchun qulay koridorlar bo‘lishi mumkin (21-rasm).



**21-rasm.** Koridor masofasi bahosi natijalari tahlili

Sirt bo'yicha uzunlikni (Surface length) berilgan relef sirti bo'yicha kirish chiziqli fazoviy obyektlarning uzunligi hisoblanadi. Past-baland yoki tog'li joylarda fazoviy obyektlarning ikki o'lchovli yoki planimetrlı uzunligiga nisbatan bunday uzunlik ancha katta bo'lishi mumkin. Shuningdek, ikki nuqta orasidagi egri chiziqli yo'l uzunligi shu ikki nuqta orasidagi to'g'ri chiziqli yo'l uzunligidan kattaroq bo'ladi. Sirt bo'yicha uzunlik haqidagi axborot kiruvchi fazoviy obyektlar atributlari jadvalini kiritadi.

Quyida chiziqli fazoviy obyektlarning sirt bo'yicha uzunligi bilan kesishgan joydagi tekislikdagi obyekt uzunligi taqqoslab ko'rsatilgan (22-rasm).



<b>2D шаклиниң күриншілігі</b>	<b>3D іоза узунлігі</b>
90,956	91,310

**22-rasm.** Sirt bo‘yicha chiziqli fazoviy obyektlar uzunligini tekislikdagi uzunligi bilan taqqoslash

### **Nazorat uchun savollar**

1. Yaqinlik tahlili deganda nimani tushunasiz, buni izohlab bering.
2. Obyektga yo‘naltirilgan yaqinlik vositalarini izohlab bering.
3. Qatlamlar asboblari va jadvallarni tasvirlash deganda nimani tushunasiz?
4. Evklid masofasi nima?
5. Evklid yo‘nalishi nima?
6. Baholash oralig‘i nima?
7. Yo‘l masofasi deganda nimani tushunasiz?

### **3-bob. CHIQARIB OLISH TAHLILI**

#### **3.1. Chiqarib olish tahlili haqida umumiy tushuncha**

Chiqarib olish vositalari bizlarga yacheykalar to‘plamchasi ni rastrdan yoki yacheykalar atributlari bo‘yicha yoki ularning fazoviy joylashishi bo‘yicha chiqarib olishga imkon beradi. Shuning bilan birga sizlar yacheykalar qiymatini belgilangan joylashishi uchun atribut sifatida nuqtaviy obyektlar sinfida yoki jadval tarzida olishingiz mumkin.

Yacheyka qiymatlarini ularning atributlari asosida yoki yangi rastrdagи joylashishi asosida chiqarib olish vositalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Atributlar qiymati bo‘yicha yacheykalarni chiqarib olish (atributlar bўyicha chiqarib olish Extract by Attributes savol ma’nosida bajariladi. Masalan, chiziq tahlilining maqsadi uchun balandligi 100 metrdan ortiq yacheyka belgilarini rastridan chiqarib olishni talab etishi mumkin.

Fazoviy joylashish geometriyasi yacheykalarni chiqarib olish uchun yacheykalar guruhi berilgan geometrik shaklning tashqi yoki ichida joylashish talabiga javob berishi lozim (doira tashqarisiga chiqarib olish (Extract by Circle), poligon bo‘yicha chiqarib olish (Extract by Polygon), to‘g‘riburchak bo‘yicha chiqarib olish (Extract by Rectangle).

Berilgan joylashish bo‘yicha yacheykalarni chiqarib olish uchun bu joylashuvlarni x, u nuqtalari bo‘yicha aniqlash talab etiladi (nuqtalar bo‘yicha chiqarib olish (Extract by Points) yoki rastr niqoblarini foydalanib saylab olgan yacheykalar orqali chiqarib olish ( niqob bo‘yicha chiqarib olish (Extract by Mask)).

Joylashish joyini topshiriq sifatida beruvchi qurollar yoki atributlar jadvallariga yacheykalar belgilari chiqarilib olinadi.

Nuqtaviy obyektlarning sinfi bilan aniqlangan yacheykalarning qiymatlari jadvalda yangi sinf obyektlarining atributlari sifatida yozilishi mumkin

(ma’nolarini nuqtalardan chiqarib olish (Extract Values to Points)). Shu bilan birga faqat bitta kirish rastridan yacheyka qiymatlari chiqarib olinadi.

Nuqtaviy obyektlar sinfi bilan aniqlangan yacheykalarning qiymatlarini fazoviy obyektlari sinfi atributlari jadvaliga qo’shilgan bo‘lishi mumkin. (Nuqtaning mumkin qiymatlarini chiqarish). Shunday qilib, bir necha rastrdagi yacheykalar qiymatlarini aniqlash mumkin.

Aniqlangan joylashuvlar uchun (rastr va fazoviy obyekt) yacheyka qiymatlarini jadvalga yozib qo‘yish mumkin (Namuna (Sample)).

Joylashish va shakl, atribut bo‘yicha chiqarib olish, Desktop «Geoqayta ishslash» vositalari bo‘yicha ma’lumotlar kitobi «Spatial Analyst »da chiqarib olish va hakozolardir.

Yacheykalar to‘plamchalarini yangi rastrlarga bir necha usul bilan chiqarib olish mumkin – atribut tanlash usuli bilan yoki boshqa rastr shaklini aniqlash usullari bilan.

### **3.2. Atribut bo‘yicha chiqarib olish**

Berilgan atributiv so‘rovga javob beradigan yacheykalar yangi chiqish rastriga Atributlar bo‘yicha chiqarib olish vositasi (Extract by Attributes) yordamida bajarilishi mumkin.

Bu vositaning qo’llanishiga qiyaligi 10% dan ko‘p bo‘lgan barcha yacheykalarni chiqarib olishni yoki tijoriy maqsad uchun attributed With zoning yacheykalarni chiqarib olish misol bo‘ladi. So‘rovga javob beradigan yacheykalar chiqishda beriladi, har bir yacheyka uchun zarur boshlang‘ich qiymati beriladi.

Berilgan so‘rovga javob beradigan yacheykalar uzluksiz bo‘lishi shart emas.

### **3.3. Shakllar bo‘yicha chiqarib olish**


Siz berilgan shakl asosida yacheykalarni chiqarib olishingiz mumkin. Sizda shaklning ichida yoki tashqarisida yotgan yacheykalarni chiqarib olish ro‘yxati bor. Siz doira, to‘rtburchak yoki poligon bo‘yicha chiqarib olishingiz mumkin.

### 3.4. Doira shaklida chiqarib olish

Doira shaklida chiqarib olishni bajarish uchun Doira shaklida chiqarib olish vositasini (Extract bu Ciccle)ni qo'llash lozim.

Bunda doira markazi joylashuv joyini va radiusini berish kerak.

Quyidagi 22-rasmda doira ichidan barcha yacheykalar (yacheykalar markazlari) chiqarib olinadi:




**22-rasm.** Doira shaklida chiqarib olish

### 3.5. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida chiqarib olish


To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida chiqarib olishni bajarish uchun To‘g‘ri to‘rtburchak shaklida chiqarib olish vositasidan (Extract bu Rectangle) foydalanish kerak.

To‘rtburchakning yuqori o‘ng burchagini va pastki chap burchagini aniqlab olish lozim.

Quyidagi 23-rasmda berilgan to‘rtburchak ichidagi yacheykalar chiqarib olingan.



Ўзига хос тўғрибурчак



Ойнада таҳлил қилиш  
жараёнида катакчаларни  
таниш


**23-rasm.** To‘g‘ri to‘rburchak shaklida chiqarib olish

### 3.6. Poligon (ko‘pburchak) shaklida chiqarib olish

Poligon shaklida chiqarib olishni bajarish uchun poligon bo‘yicha chiqarib olish vositasini qo‘llash lozim.

Poligon cho‘qqilarining joylashishini kiritish kerak.

Quyidagi 24-rasmda chiqarib oluvchi poligon aniqlangan, lekin o‘lchamlari rastrning ichida emas, balki tashqarisida bo‘lgan yacheykalarni chiqarib olish uchun berilgan.



**24-rasm.** Poligon (ko‘pburchak) shaklida chiqarib olish

### 3.7. Joylashishi bo‘yicha chiqarib olish

Yacheykalarni ularning fazoviy joylashishi bo‘yicha chiqarib olish mumkin bo‘ladi. Chiqarib olinayotgan yacheykalarning alohida nuqtaviy joylashishlari yoki ma’lum niqob bilan aniqlangan o‘lchami va shakli joylashish guruhlaridan aniqlanishi mumkin.

### 3.8. Nuqtalarning joylashishini chiqarib olish

Siz o‘zingizni qiziqtirgan koordinata nuqtalarining sistemasini aniqlab, rastrdan belgilangan yacheykani chiqarib olishingiz mumkin.

Nuqtalar asosida chiqarib olishni bajarish uchun nuqtalar bo‘yicha chiqarib olish vositasidan (Extract by Points) foydalaning.


Nuqtalarni  $x$ ,  $y$  koordinatalarining joylashishi bo‘yicha kiritish lozim.

### 3.9. Niqob (maska) yordamida chiqarib olish

Yangi rastrga chiqarib olinadigan yacheykalarni aniqlash uchun boshqa ma'lumotlar to'plami — niqobdan foydalanish mumkin. Niqob rastr yoki obyekt sinflarining to'plamidan iborat bo'lishi mumkin.

Chiqarib olishning bu turini bajarish uchun Niqob yordamida chiqarib olish vositasidan (Extract bu Mask) foydalanish mumkin.

Quyidagi 25-rasmida ko'rsatilganidek, chiqarib olish vositasi NoData dan boshqacha qiymatlar niqob rastrida shu joylashish qiymatlari bilan, kirish rastridagi joylashishga berilgan qiymatlarni egallaydi.



**25-rasm.** Niqob yordamida chiqarib olish vositasidan foydalanish

Niqob sifatida obyektlar sinfi to'plamidan foydalanish mumkin. Lekin berilgan shakl chegarasidagi yacheykalar chiqish rastrida kirish rastri (Imput raster) qiymatini oladi.

### **3.10. Yacheykalar qiymatlarini nuqtaviy obyektlarga chiqarib olish**

Desktop «geoqaytaishlash» vositalar bo‘yicha ma’lumotnoma» Spatial Analyst»da chiqarib olish.

Rastr ma’lumotlaridagi yacheykalar qiymatilari to‘g‘ridan-to‘g‘ri vektor nuqtaviy ma’lumotlarga chiqarib olinishi mumkin. Buni ikki usul bilan bajarish mumkin:

- yangi vektor chiqish ma’lumotlarini yaratish bilan;
- mavjud nuqtaviy obyektlar sinfiga qiymat berish orqali.

Yacheykalar qiymatlarini yangi nuqtaviy obyektlar sinfi to‘plamiga chiqarib olish.

Nuqta qiymatlarini chiqarib olish (Extract Values to Points) vositasi yordamida yacheykalar qiymatlarini bir rastrdan chiqarib olishni xohlasangiz, joylashishni aniqlash uchun nuqtaning joylashgan o‘rnini nuqtaviy obyektlar ma’lumotlar to‘plamidan foydalanishingiz mumkin. Bu qiymatlar obyektlar sinflari to‘plami atributlar jadvaliga yozib qo‘yiladi.

Rastrdagи yacheykalar qiymatlari mavjud obyektlar sinfi to‘plamiga qo‘shiladi.

Multiqiymatni nuqtaga chiqarish vositasi yordamida siz yacheykalar qiymatlarini chiqarmoqchi bo‘lgan bir yoki bir necha rastrda nuqtaviy obyektlar to‘plamidan foydalanishingiz mumkin.

Bu vositaning qiymatlarini nuqtalarga chiqarib olish vositasidan (Extract to Points) farqi:

- bu vosita obyektlar sinfining kirish to‘plami atributlar jadvaliga yacheykalar qiymatlarini qo‘shadi. U obyektlarning yangi sinflar to‘plamini yaratmaydi.

Bir yo‘la bir necha rastr ma’lumotlari to‘plamini sinab ko‘rish mumkin.

Rastr ma’lumotlari to‘plami ko‘p kanalli kirish ma’lumotlarini quvvatlaydi.

Agar nuqtaviy obyektlar to‘plam sinfi kirish joylashishi bilan ko‘rsatilgan bo‘lsa, unda berilgan kirish rastridagi nuqta koordinatalari bilan mos kelmasligi mumkin. Tanlangan nuqtalarning aniq joylashgan belgilarini aniqlash uchun tegishli qayta diskretlashtirish usulidan foydalanish kerak. Diskret tipdagi ma’lumotlar uchun NEAREST nomli diskretlashtirish algoritmi etarli bo‘ladi. Ammo uzluksiz ma’lumotlar turi uchun qayta diskretlashning boshqa usulini bajarish qulayroq bo‘ladi. Masalan, balandlik ma’lumotlari uchun aniq natija ikki chiziqli interpolatsiya yoki kub shaklidagi o‘ram qo‘llaganda olinadi. Ikki chiziqli interpolatsiya usuli eng yaqin to‘rtta kirish yacheykalarining oralig‘i asosida yacheykalarning qiymatini aniqlab beradi.

Kub shaklidagi o‘ram usulini qo‘llaganda yacheykaning belgilarini eng yaqin 16 ta yacheyka markazgacha bo‘lgan o‘lchangan masofa yordamida hisoblab chiqiladi.

Har bir tayanch joylashish uchun joylashish raqami (rastr belgisi yoki nuqtaviy obyektning identifikatori), kartaning fazodagi holati ( $x, y$  koordinatalari) va har bir kirish rastridagi yacheykalar belgilari haqidagi ma’lumot jadvalga yoziladi. Jadval quyidagicha umumiyl tuzilishga ega:

locationID-1 x-coord1 y-coord1 cellvalue1 cellvalue2 cellvalue3 ...

locationID-2 x-coord2 y-coord2 cellvalue1 cellvalue2 cellvalue3 ...

Quyidagi 26-rasmda «Namuna» vositasi uchun (Sample) EGDB chiqish jadvalida quyidagicha keltirilgan:

Кадвал.

худуд	Тупроқ лар	X	Y	Синф	ph	Юмшоқлиги
1	1	738617.688	4332677.500	7.000	6.400	0.057
2	2	747827.688	4325597.500	6.000	7.000	0.137
3	3	739217.688	4322357.500	2.000	<Null>	<Null>
4	4	747257.688	4319027.500	3.000	7.400	<Null>
5	5	748727.688	4311797.500	2.000	7.900	0.097

**26-rasm.** Ma'lumotlar bazasida chiqish rastri belgilarining berilishi

### 3.11. Ustiga qo'yish tahlili asoslari

Ustiga qo'yish tahlili optimal hududni tanlash uchun qo'llaniladigan yaroqlilik modellashtirish metodologik guruhlaridan iborat. Bu usul har xil kirish ma'lumotlarining umumiyligi shkalalari yagona tahlili majmuasini bajarish maqsadida qo'llaniladi.

Yaroqlilik modellari aniq jarayonlar uchun eng yaxshi yoki eng qulay joylarini aniqlaydi. Yaroqlilik tahlili vositasida qaralayotgan muammolar turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yangi uy-joy qurilishini qaerga joylashtirish;

Bug'ular yashashi uchun qaysi hududlar qulayroq;

Qaerda iqtisodiy o'sish tezroq bo'ladi;

Er cho'kishi yoki siljishi mumkin bo'lgan joylar qaerdaligi.

Ustiga qo'yish tahlili, ko'pincha, ko'plab har xil omillarni tahlil qilishni nazarda tutadi. Masalan, yangi uy qurish uchun er tanlash, arning bahosini, kommunikatsiyalarga yaqinligi, qiyaliklar va suv bosishi xavflari kabilarni hisobga

olishni anglatadi. Bu ma'lumot har xil rastrlarda har xil o'lchov shkalalarida mavjud: dollarlar, masofalar, daraja týrlari va hokazolar. Er bahosi rastrli (dollar bilan ko'rsatilgan) va rastr masofasi to muhandislik tarmog'igacha (metrlarda ko'rsatilgan) rastri bilan bilan ustma-ust qo'yolmaysiz va ahamiyatli natija ololmaysiz.

Bundan tashqari, bizning tahlilda hisobga olinadigan har xil omillar muhim darajaga ega bo'lishi mumkin. Joy tanlaganda arning bahosi muhandislik kommunikatsiyalargacha bo'lgan masofaga nisbatan ahamiyatliroq bo'lib sanaladi. Aynan qaysinisi muhimligini o'zingiz hal qilasiz.

Bir rastr bilan ham qiymatlar ustunligini aniqlashingiz kerak. Rastrning muayyan bir qancha qiymatlari maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin (masalan, 0 dan 5 gradusgacha bo'lgan qiyaliklar), holbuki boshqalari bundan yaxshiroq yoki yomonroq va yaroqsiz bo'lishi ham mumkin.

Quyida ustiga qo'yish tahlilini bajarish uchun bajarish qadamlari keltirilgan:

- Muammoni aniqlash;
- Muammoni kichik modellarga ajrating;
- Ahamiyatli qatlamlarni aniqlang;
- Qatlamdagi ma'lumotlarni qayta sinflang yoki transformatsiya qiling;
- Kirish qatlamlarini o'lchab ko'ring;
- Qatlamlarni qo'shing yoki kombinatsiyalang;
- Tahlil qiling.

1–3 - qadamlar deyarli barcha fazoviy muammolarni hal qilish uchun umumiy qadamlar bo'lib hisoblanadi va bu ayniqsa ustiga qo'yish tahlilida juda muhimdir.

## **1. Muammoni aniqlang**

Muammolarni aniqlash – modellash jarayonining eng qiyin jihatni bo'lib hisoblanadi. Umumiy maqsadni aniqlash zarur. Ustiga qo'yish modellashtirish

jarayonining keyingi qadamlari umumiy maqsadga erishishga yordam berishi zarur.

Maqsadga taalluqli bo‘lgan komponentlarni aniqlash zarur. Ba’zi komponentlar komplimentar, boshqalari esa raqobatbardosh bo‘lishi mumkin. Lekin har bir komponentning aniq ta’rifi va ularning o‘zaro tavsifi belgilangan bo‘lishi lozim.

Muammoning sababini faqat aniqlashgina emas, balki muammo echilgan yoki hal bo‘lganligi savolni aniq tushunish va rivojlantirish ahamiyatlidir. Muammoni aniqlashda modelning hulosalarini aniqlash uchun aniq o‘lchovlar belgilanishi lozim. Masalan, tog‘ chang‘isi dam olish maskanining joyini aniqlaganda umumiy maqsad pul topish bo‘lishi mumkin. Modelda aniqlangan barcha omillar hududga dam olish maskani foydali bo‘lishiga yordam berishi kerak.

## **2. Muammoni modelchalarga ajrating**

Ko‘pchilik ustiga qo‘yish muammolari murakkabdir, shu sababli anqlik kiritish uchun uni aniqlashda modelchalarga ajratish kerak. Tushunarli bo‘lishi uchun fikrlar jamlab olinadi va ustiga qo‘yish muammosi samarali hal etiladi. Masalan, tog‘ chang‘isi dam olish maskaniga joy tanlaganda yaroqlilik modelida bir qancha modelchalarga bo‘lish mumkin. Ularning barchasi tog‘ chang‘isi dam olish maskanining foydali bo‘lishiga yordam beradi. Birinchi modelcha sirt tekisligining modelchasi bo‘lishi mumkin. U chang‘ichilar va snoubordchilarga joy tanlashda qulay tekisliklar keng spektrlariga ega bo‘ladi.

Inson tog‘ chang‘isi zonasiga etib kelishi etib kelish modelchasida ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Modelchaga katta shaharlardan kelish qulayliligi va mahalliy kelish yo‘llarini kiritish mumkin.

Baho modelchasi qurilish uchun eng qulay joylarni aniqlab beradi. Bu modelcha yassi qiyaliklarni, suvga va elektr tizimlariga yaqinligini aniqlaydi.

Aniq atributlar yoki qatlamlar bir necha modelchada bo‘lishi mumkin. Masalan, tik qiya sirt tekisligi modelchada qulay bo‘lib, qurilish modelchasi bahosiga esa noqulay kelishi mumkin.

## **3. Ahamiyatli qatlamlarni aniqlash**

Har bir modelchaga ta'sir qiluvchi qatlam yoki atributlari aniqlanishi lozim. Har bir omil modelcha aniqlagan jarayonning komponentini belgilaydi va tasvirlaydi. Har bir omil modelchaning maqsadiga etishishini ta'minlaydi va har bir modelcha ustiga qo'yish modelining umumiyligi maqsadiga erishishiga yordam beradi. Jarayonni aniqlashga yordam beradigan omillargina ustiga qo'yish modeliga kiritilishi lozim. Belgilangan omillarga qatlamlar tuzilgan bo'lishi kerak. Masalan, asosiy yo'lga yaqin bo'lishi ahamiyatliroq bo'lishi mumkin. Har bir yacheykaning yo'lgacha bo'lgan masofasini aniqlashda masofa rastrini yaratish uchun Evklid masofasi vositasini ishga tushirish mumkin.

#### **4. Qayta sinflash (transformatsiya)**

Hisoblashlarning har xil tizimlarini to'g'ridan-to'g'ri samarali kombinatsiyalash mumkin emas. Masalan, erdan foydalanishga qiyalik ham qo'shilsa, ma'nosiz natija kelib chiqadi. Hisoblashning to'rtta asosiy tizimini sanab o'tish mumkin:

Nisbiy – nisbiy masshtab 0 va masshtab doirasida taqqoslanarli sonli sanoq boshiga ega. Masalan, balandlik qiymatlari – bu nisbiy sonlar, 50 metrlik balandlik esa, 100 metrlik balandlikdan ikki barobar ko'p.

Intervalli – intervalli masshtabda qiymatlar bir-biriga nisbatan nisbiy bo'ladi, lekin hali sanoq boshi umumiyligi nuqtasi yo'q. Masalan pH masshtab intervalli turga ega, bu erda belgi 7 neytral belgidan qancha katta bo'lsa, u shunchalik ishqoriy, agar 7 dan qancha kam bo'lsa, u shunchalik nordon bo'lishi mumkin. Lekin qiymatlar to'liq taqqoslanarli emas. Masalan, 2 ga teng pH, pH-4 ga nisbatan ikki marta nordon bo'lmaydi.

Tartibli masshtab – bu masshtab tartib o'rnatadi, masalan, yugurishda kimdir birinchi, ikkinchi va uchinchi bo'lib keldi. Tartib o'rnatilgan, biroq bunda berilgan tartib raqamlarini to'g'ridan-to'g'ri taqqoslab bo'lmaydi. Masalan, bunda birinchi kelgan odam, ikkinchi bo'lib kelgandan ikki barobar tez harakatlangan bo'lishi shart emas.

Nominal masshtab – bu masshtabda berilgan qiymatlar orasida hech qanday bog'lanish yo'q. Masalan, erdan foydalanish qiymatlarini (nominal qiymatlar) bir-

biri bilan taqqoslab bo‘lmaydi. 8 ga teng bo‘lgan erdan foydalanish, ehtimol 4 ga teng bo‘lgan erga foydalanishdan ikki barobar katta emasdir.

Har bir kirish qatlami xar xil qiymatli diapazonga va sanoq sistemasiga ega bo‘lishi mumkin. Tahlil uchun bir necha omillarni birlashtirmasdan avval har biri qayta sinflanishi yoki umumiy nisbiy masshtabga transformatsiyalanishi lozim.

Umumiy masshtablar avvaldan aniqlangan bo‘lishi mumkin. Masalan, 9 ga 1 yoki 10 ga 1, bu erda kattaroq qiymat eng qulay qiymat bo‘ladi. Masshtab 1 ga 0 bo‘lishi mumkin. U belgilangan to‘plamga tegishlilik imkonini ifodalaydi.

## **5. Og‘irlik**

Ba’zi bir omillar umumiy maqsadga erishish uchun boshqa omillarga nisbatan ahamiyatliroq bo‘lishi mumkin. Bu holatda omillar aralashtirilmasdan avval ularning qiymatlari ahamiyatliligi nuqtai nazaridan baholanadi. Masalan, tog‘ chang‘i maskanini joylashtirish modelida qiyalik mezoni katta yo‘lgacha masofaga nisbatan qurilish bahosi uchun ikki barobar muhimroq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ikki qatlamni kombinatsiyalamasdan oldin qiyalik mezonini katta yo‘lgacha bo‘lgan ikki masofaga ko‘paytirish lozim.

## **6. Qo‘shish/Kombinatsiyalash**

Qo‘shish tahlilida model maqsadga muvofiq joylashishini aniqlash uchun barcha kirish omillari orasida aloqa o‘rnatish lozim. Masalan, tegishli o‘lchashlardan keyin qatamlarning qo‘shish modelini birlashtirish mumkin. Bunda kombinatsiyalangan nuqtai nazarda qulay omillar qanchalik ko‘p bo‘lsa, joylashish shunchalik mos bo‘ladi. Shunday qilib, natijaviy chiqish rastrida qiymat qancha yuqori bo‘lsa, joylashish shunchalik mos deb qaraladi.

Yana boshqa kombinatsiyalangan usullarni qo‘llash mumkin. Masalan, noaniq qo‘shish mantiqiy tahlillarda kombinatsiyalangan usullar joylashishi bir necha to‘plamga tegishli ekanligini tadqiq qilish imkoniyatini beradi.

## **7. Tahlil qilish (Analyze)**

Modellashtirishning eng oxirgi qadami – natjalarni tahlil qilish. Eng yaxshi (ideal) joylashish zaruriy mezonga javob beradimi?

Modelda aniqlangan eng yaxshi joylashishni faqat o‘rganib chiqishgina emas, balki ikkinchi va uchinchi qulay uchastkalarni ham tadqiq etish foydalidir.

Aniqlangan joylashishlar ko‘rinuvchan bo‘lishi kerak. Siz bunga ishonch hosil qilishingiz kerak. Barcha vaziyatlar o‘zgarishi mumkin. Sababi, model uchun ma’lumotlar yaratildi. Masalan, modeldagi kirish mezonining biri –ko‘rinishlar bo‘lishi mumkin. Ya’ni ko‘rinishlar qancha yaxshi bo‘lsa, joylashish shuncha ahamiyatli bo‘ladi. Balandlikning kirish ma’lumotlardan biri – yaxshi ko‘rinishli joylashishni aniqlaydigan modeldir. Lekin agar qulay tekislikning biri qulay ko‘rinishda bo‘lsa, bino qulay ko‘rinib turadigan joy oldiga qurilganligi aniq bo‘ladi.

Agar yuqoridagi barcha qadamlardan kirish ma’lumotlarini olsak, joylashish tanlanadi.

### **Ustiga qo‘yish tahlilining yondashuvlari**

Ustiga qo‘yish tahlilini bajarish bo‘yicha bir necha yondashuvlar bor. Har bir yondashuv ustiga qo‘yish tahlilining umumiyligini qadamlarining joy almashishini amalga oshiradi.

Muammoni aniqlang;

Muammoni kichik modellarga ajrating;

Ahamiyatli qatlamlarni aniqlang;

Qatlamdagi ma’lumotlarni qayta sinflang va transformatsiyalang;

Kirish qatlamlarini taqqoslang;

Qatlamlarni qo‘sning yoki kombinatsiyalang;

Tahlil qiling.

Ustiga qo‘yish uchun uch asosiy yondashuv qo‘llaniladi: muallaq ustiga qo‘yish, muallaq summa va noaniq ustiga qo‘yish. Har bir yondashuv har xil bazaviy dastlabki shart va bashoratlarga ega. Eng maqsadga muvofiq yondashuv echilayotgan ustiga qo‘yish muammosiga bog‘liq bo‘ladi. Quyida bularning har biri bo‘yicha yakuniy axborotlar berilgan.

## **Muallaq ustiga qo‘yish (Weighted Overlay)**

Muallaq ustiga qo‘yish tahlilida bir qator vositalar muallaq ustiga qo‘yish vositasini to‘ldirishi mumkin. Yuqorida ta’kidlangan ustiga qo‘yish tahlilining umumiy qadamlari bo‘yicha borish saqlash uchun muallaq ustiga qo‘yish vositasi (Weighted Overlay) aniqlangan mashtabda (1 dan 9 gacha) kirish ma’lumotlarini mashtablaydi, Kirish ma’lumotlarini o‘lchaydi va ularni birlashtiradi.

Har bir kirish mezoni uchun eng qulay joylashuvlar kattaroq, masalan 9, belgilarini qaytdan sinflaydi. Muallaq ustiga qo‘yish vositasida kirish rastrlariga berilgan katta qiymatlar jami 100 % bo‘lishi kerak. Qatlamlar tegishli ko‘paytkichga ko‘paytiriladi va har bir yacheyka uchun natijaviy qiymatlar birlashtiriladi. Muallaq ustiga qo‘yish bo‘yicha qulay omillar chiqish rastrida kattaroq qiymatlarga olib keladi. Shunday qilib, bu joylashishlarni eng yaxshi deb belgilaydi.

## **Muallaq summa (Weighted Sum)**

Spatial Analyst ning boshqa vositalari bilan to‘ldirilgan Muallaq summa vositasidan foydalanganda to‘ldiruvchi ustiga qo‘yish tahlilini amalga oshirish mumkin. Kirish qatlamlari qiymatlarini Muallaq summa (Weighted Sum) vositasini ishlatmasdan oldin qayta sinflab olish kerak. Muallaq ustiga qo‘yish (Weighted Overlay) vositasidagi vazn qiymatlaridan farqli ravishda, kirish rastrlariga vazn qiymatlariga istalgan qiymat berish mumkin va ular summasiga hech qanday talab qo‘yilmaydi. Kirish rastrlari muallaq summa vositasining chiqish qiymatli har bir qiymatni vazn qiymatiga ko‘paytmalarining yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Muallaq ustiga qo‘yishdan farqli ravishda qiymatlar berilgan mashtabga qayta sinflanmaydi. Shunday qilib, u modelga kiritilgan qiymatlarning atributiv echimini ta’minlaydi. Muallaq summadan foydalanganda, qulay omillar chiqish rastrida yaxshi qiymatlarga olib keladi va shu bilan bu joylashuvlarni eng yaxshi joylashish deb identifikasiyalash mumkin.

## **Noaniq ustiga qo‘yish (Fuzzy Overlay)**

Noaniq ustiga qo‘yish tahlili to‘plamlar nazariyasiga asoslangan. To‘plamlar nazariyasi – bu matematik fan bo‘lib, u jarayon munosabatlari soni aniq to‘plamga

tegishliligini aniqlaydi. Noaniq ustiga qo'yishda to'plam odatdagidek sinfga mos bo'ladi. Bu ustiga qo'yish yuqorida aytilgan ustiga qo'yish tahlilining umumiylarida aniq bajariladi, lekin qayta sinflash qiymatlaridan va bir necha me'yorlarni qo'shish natijalaridan ajralib turadi. Birinchi uch qadam quyidagicha: muammoni aniqlash, modelchalarga bo'lish va ahamiyatli qatlamlarni aniqlash. Muallaq ustiga qo'yish va Muallaq summa vositalariga o'xshash.

Noaniq ustiga qo'yish tahlili ma'lumotlar qiymatlarini umumiylarini masshtabga qayta sinflaydi yoki transformatsiya qiladi. Bunda transformatsiya qilingan qiymatlar muayyan bir to'plamga tegishliligini aniqlashga imkon beradi. Masalan, yaroqlilikka transformatsiya qilingan Qiyalik qiymatlarida (0 dan 1 gacha, bu erda 1 yaroqli). Muallaq ustiga qo'yishda va Muallaq summada qiymatlar nisbiy qulay masshtabda bo'ladi. Bu erda katta qiymatlar ancha qulay, chunki noaniq ustiga qo'yishda imkoniyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Transformatsiyalangan qiymatlar to'plamga tegishlilik imkoniyatlarini ko'rsatadi, Noaniq ustiga qo'yishda esa kirish rastr o'lchanmaydi. "Qo'shish va kombinatsiyalash" qadamida umumiylarida qo'yish tahlili qadamida noaniq ustiga qo'yish muallaq ustiga qo'yishdan va muallaq summadan farq qiladi. Noaniq ustiga qo'yish tahlilida qadamlarni kombinatsiyalash har bir joyning imkoniyatlari sonini aniqlaydi va har xil kirish rastrlari to'plamiga tegishli bo'ladi.

### **Nazorat uchun savollar**

- 1.Joylashish va shakl, atribut bo'yicha chiqarib olish nima?
- 2.Polygon shakli bo'yicha chiqarib olish deganda nima tushuniladi?
- 3.Joylashish bo'yicha chiqarib olish deganda nimani tushunasiz?
- 4.Ustiga qo'yish tahlilini tushuntirib bering va qanday qadamlardan iboratligini izohlab bering.
5. Muallaq ustiga qo'yish tushunchasini izohlab bering.
6. Muallaq summa deganda nimani tushunasiz?
7. Noaniq ustiga qo'yish nima?




## 4-bob. TARMOQLAR TAHLILI

### 4.1. Tarmoqlar tahlili haqida umumiylash tushunchasi

Bu bob asosan tarmoqlar tahliliga bag‘ishlanadi va bu usulda tasvirlash yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

Tarmoqlar tahlili quyidagi savollarga javob beradi:


*A* nuqtadan *B* nuqtagacha bo‘lgan qaysi marshrut eng qisqa hisoblanadi? Bu erda manzilga tez etib borish uchun eng yaqin marshrut yo‘nalishini tanlash juda muhimdir (27-rasm).



**27-rasm.** Eng qisqa marshrutlar yo‘nalishining tasvirlanishi

Qaysi uyga yong‘inga qarshi kurashish bo‘limi 5 minutlik masofada?


Qaysi korxona iste’mol bozorini egallagan?



**28-rasm.** Eng yaqin do‘kon yoki korxonalarining tasvirlanishi

Inson eng yaqin do‘konga borishni xohlaydi. U vaqtini tejash uchun do‘konning qaysi filialiga borishi kerak (28-rasm)?

Qaysi tez yordam mashinasi yoki DAN xodimi mashinalari hodisa sodir bo‘lgan joyga tezroq etib bora oladi?




**29-rasm.** Eng asosiy yo‘llarning tasvirlanishi

Yaqin joydagi yo‘l patrul xizmati (YPX) mashinasi favqulodda vaziyatlarga biriktirib qo‘yilgan. Har bir joyda tayyor bo‘lishi kerak bo‘lgan DAN xodimlari

soni sodir bo‘lgan yo‘l hodisasining jiddiyligiga bog‘liq bo‘ladi. Har bir mashina uchun tez etib borish marshrutlari ishlab chiqiladi (29-rasm).

Yuk mashinalari saroyi yoki ta’mirlash-avariyaviy mashinalar saroyi yordamida xizmat ko‘rsatish darajasini qanday qilib yaxshilash va transport chiqimlarini kamaytirish mumkin?




**30-rasm.** Avtomobilarga xizmat ko‘rsatish joylarining tasvirlanishi

Ulgurji bazaga tegishli uchta yuk mashinasi yuklarni etkazib berish uchun yaqin joydagi oziq-ovqat do‘konlariga taqsimlab qo‘yilgan. Ularga transport xarajatlarini qisqartirishga yordam beruvchi do‘konlarga boradigan harakat yo‘nalishlari belgilab berilgan. Mashinalar sig‘imi, tushlikdagi tanaffuslar va yo‘lga ketadigan maksimal vaqt – masalalarni hal qilishda qo‘l keladigan cheklovchi omillardir (30-rasm).

Iste’mol bozorini kengaytirish uchun yangi do‘konni qaerda ochsa yaxshi bo‘ladi?

Agar kompaniya qisqarayotgan bo‘lsa, eng to‘liq talablarni saqlab qolish uchun do‘konlardan qaysi birini yopish kerak? Hozirgi yoki tarixiy sharoit vaziyati qanday va tarmoq tahlili natijalariga ular qanday ta’sir ko‘rsatadi?




**31-rasm.** Tarixiy joylar, kompaniyalar va yirik do‘konlarning tasvirlanishi

Tarmoqlar tahlili korxonalarda, jamoat xizmatlarida va boshqa tashkilotlarida muvaffaqiyat bilan qo‘llanilishi mumkin. Bu ularga o‘z faoliyatini samarali yuritishiga va strategik xulosalar qabul qilishga imkon beradi (31-rasm). Kimning ularning mahsulotlariga yoki xizmatiga talabgor ekanligi haqidagi ma’lumotlar joriy va potentsial bozor dinamikasini yaxshi tushunishga yordam beradi. Bunda, bekatlarni va eng qisqa yo‘lda bekatlar orasidagi to‘sqinlik qiluvchi omillarni, masalan, vaqt intervallari, mashinalar sig‘imi va yo‘lga ketadigan maksimal vaqt ni optimal taqsimlab transport xarajatlarini kamaytirish mumkin. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish va tez suratda harakat qilish asosan xizmat ko‘rsatish shoxobchasinging qulay joylashishi bilan bog‘liqdir. Tarmoqlar tahlili bunday masalalarni tushunish va hal etishga katta yordam beradi.

Tadqiqotchilar va tahlilchilar tarmoqlar tahlili imkoniyatidan bir necha boshlang‘ich nuqtalar va belgilangan manzillar orasidagi tarmoq yo‘llari eng kam harajatlarni aniqlash uchun foydalanishlari mumkin. Yaratilayotgan tarmoqlar tahlili matritsasi maqsadga erishiladigan yutuqlar bahosi ba’zan kattaroq ko‘lamdagи hisob-kitoblarni bajarishga xizmat qiladi. Masalan, transport oqimlarini bashorat qilishda ayrim hollarda transport tarmoqlari uzellarining masofasi

hisobga olinadi. Tarmoqlar masofasining qiymatlari marshrutdagi oqimni bashorat qilishga yordam beruvchi matematik ifodalarni hisoblashda foydalanildi (32-rasm).



**32-rasm.** Eng yaqin yo‘l masofasini hisoblash

Maqsadga erishish baho matritsasi eng kam harajatli tarmoq yo‘lining boshlang‘ich nuqtasidan belgilangan nuqtagacha bo‘lgan masofasini hisoblaydi. U boshlang‘ich nuqtalarni belgilangan manzil bilan bog‘lovchi chiziqli obyektlarini keltirib chiqaradi. Har bir chiziqli obyekt marshrutning umumiy tarmog‘i bahosini atribut belgilari ko‘rinishida saqlaydi. Tahlilchilar ayrim vaziyatlarda jadval ma’lumotlari atributlaridan kirish ma’lumotlar sifatida chiziqli tarzda dasturlashda foydalanadilar.

Agar to‘g‘ri chiziqli masofa o‘rniga tarmoq masofalaridan foydalanilsa, fazoviy statistikada hisoblashlarni bajarishda aniqroq ma’lumotlarni olish mumkin. Yo‘l-transport hodisalari tahlilini misol sifatini ko‘rib chiqamiz. Maqsad qaysidir yo‘l-transport hodisasini klasterlarda, ularning sabablarini aniqlash va ularning

sonini kamaytirish uchun choralar ko‘rishni bildiradi. Avtomobillar yo‘lda harakatlanadi, shuning uchun yo‘l-transport hodisalari klasterlarini tarmoq masofasi yordamida aniqlash to‘g‘ri chiziqli masofadan foydalanishga qaraganda ancha samarali bo‘ladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan savollarga javob olish uchun tarmoq tahlilini bajarish uchun transport tarmoqlarini modellashtiruvchi tarmoqlar ma’lumotlari to‘plami kerak.

### **Tarmoq nima?**

Tarmoq – bu elementlari o‘zaro bog‘langan tizim bo‘lib, qirra (chiziq) va birikmalar (nuqtalar) kabi bir joydan boshqa joyga o‘tish mumkin bo‘lgan marshrutlardan iborat.


Insonlar, resurslar va mahsulotlar, odatda tarmoqda sayr qiladi: engil va yuk mashinalar yo‘l bo‘yicha ko‘chadi, samolyotlar belgilangan yo‘nalish bo‘yicha uchadi, neft quvurlarda oqib harakatlanadi va hokazolar. Tarmoqda harakatlanish yo‘llarini modellashtirish tarmoqda neftning, yuk mashinasining va boshqalarning harakatini tahlil qilishga imkon beradi. Tarmoqlar tahlilining eng sodda masalasi ikkita nuqta orasidagi eng qisqa masofani aniqlashdir.

Geografik axborot tizimlari (GAT)da tarmoq ikki toifaga ajratiladi: geometrik tarmoqlar va tarmoqlar ma’lumotlari to‘plami.

## **4.2. Geometrik tarmoqlar (kommunikatsiyalar va daryo tarmoqlari)**

Elektr ta’mnoti, gaz quvurlari, kanalizatsiya va suv quvurlari kabi daryo va kommunikatsiya tarmoqlarida bir vaqtning o‘zida faqat qovurg‘alar bo‘yicha harakatlanish mumkin. Tarmoq agenti, masalan, oqayotgan neft quvurida harakat yo‘nalishini ham, marshrutni ham tanlay olmaydi, chunki ular tashqi omillar ta’siri bilan aniqlanadi: gravitatsiya kuchi, elektromagnit maydonlar, suvning bosimi va hokazolar. Operator tashqi omillarga ta’sirini boshqarib, agent harakatlarini nazorat qiladi.

GATda kommunikatsiya va daryo tarmoqlari geometrik tarmoqlar yordamida juda yaxshi modellashtiriladi (33-rasm).



**33-rasm.** Quvur transporti

GATda quvur transporti kabi daryo va kommunikatsiya tarmoqlarini eng yaxshisi, geometrik tarmoqlardan foydalangan holda modellashtirish kerak.

#### **4.3. Tarmoqlar ma'lumotlari to'plamlari (transport tarmoqlari)**

Ko'chalar, temir yo'l tarmoqlari va trotuarlar kabi, transport tarmoqlarida qovurg'alar bo'yicha harakatlanadi. Tarmoq agenti, masalan, yo'lda ketayotgan yuk mashinasi haydovchisi harakat yo'nalishini va belgilangan joyni belgilangan manzilni tanlashi lozim (34-rasm).



**34-rasm.** Transport tarmoqlari

GATda transport tarmoqlarini, masalan, yo'llarni tarmoqlar ma'lumotlari to'plami yordamida qurish qulay.

#### 4.4. Multimodal ma'lumotlar to'plamlari

Multimodal ma'lumotlar to'plamlari yordamida bir rejimli ko'chish yo'nalishlarni, modellashtirish, masalan, yo'llarni yoki bir necha rejimli ko'chishlardan iborat multimodal tarmoqni: avtomobil yo'llari, temir yo'llar, suv transporti va hokazolar bo'yicha modellashtirish mumkin (35-rasm).




**35-rasm.** Ko'p tarmoqli ma'lumotlar to'plamlari

Ko'cha tarmog'i va metro liniyasi tarmog'i bo'yicha harakatlanuvchi piyoda uchun eng kam xarajatli yo'nalish.

#### 4.5. Tarmoq ma'lumotlarining uch o'lchovli to'plamlari

Uch o'lchovli tarmoq ma'lumotlari to'plamlari yordamida binolar, oralig'idagi shaxtalarda, g'orlarda o'tish joylarini modellashtirish mumkin (36-rasm).



**36-rasm.** Binolar, shaxtalar, g‘orlarni tasvirlash

Binoning birinchi qavatida joylashgan nuqta bilan uchinchi qavatida joylashgan nuqta orasidagi eng qisqa yo‘nalish. Cheklovlar yordamida nogironlar aravachasi uchun zinani hisobga olmagan yo‘nalishlarni yoki liftlarda evakuatsiya yo‘llarini rejalashtirish uchun tahlilni bajarish mumkin.

## **Nazorat uchun savollar**


1. Tarmoqlar tahlili deganda nimani tushunasiz?
2. Tarmoq nima?
3. Tarmoqlar tahlilida avtomobil yo‘llarini qanday tavsiflash mumkin?
4. Temir yo‘l transporti liniyalarini tarmoqlar tahlilida qanday tarzda aks ettirib berish mumkin?
5. Suv transportini tarmoqlar tahlilida tasvirlashni tushuntirib bering.

## 5-bob. FAZOVIY INTERPOLYATSIYA

### 5.1. Fazoviy interpolyatsiya haqida umumiyl tushuncha

Fazoviy tahlillar asosan geografikma'lumotlar yig'indisi bo'lib, qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun ishlataladi. Odatda fazoviy tahlil GAT da bajariladi. GAT asosan maxsus vositalar bo'lib, fazoviy tahlilda obyektlar statistikasi uchun (masalan, yarim chiziqlarning nechta ustundan iboratligini belgilaydi) yoki geografik qayta ishlash uchun (Masalan, interpolyatsiya) foydalaniлади. Vositalar qaysi sohada foydalanishiga qarab bo'linadi. Gidrologiya va suv masalalari bilan shug'ullanuvchi va suv oqimini modellashtirish maqsadida relef tahlili bo'yicha mutaxassislarni juda ko'plab qiziqtiradi. Geograflar o'zlashtirilgan hudud bilan tabiiy hududning o'zaro aloqasini tahliliy funktsiyalarini o'rganishda foydalanishadi. Har bir foydalanuvchi o'zining foydalanish sohasidan kelib chiqqan holda vositalardan foydalanadi va bu unga qandaydir muammolarni echishga yordam beradi.

ArcGISGeostatistical Analyst 10.1 modulida yangi interpolyatsiya usuli ishlab chiqilgan.




37-rasm. Fazoviy interpolyatsiya usuli

#### 5.1.1. Fazoviy interpolyatsiya

Fazoviy tahlilning geostatistik interpolyatsiya usulida asosan geostatistikaning tuzuvchi operatsiyasi (Geostatistical Wizard) ochiq bo‘lib, poligonlar bo‘yicha interpolyatsiyani bajarish uchun Kriging nazariyasidan foydalanish mumkin. Krigingning boshqa usullarida faqatgina to‘xtovsiz Gauss ma’lumotlaridan foydalanilib, fazoviy interpolyatsiyada ko‘plab qo‘sishmcha ma’lumotlarni va ehtimolliklarni qayta ishlaydi. Poligonlardagi fazoviy interpolyatsiya qatlamida (Areal Interpolation Layer To Polygons) interpolyatsiya uning qaysi bir poligonida bajarilgan bo‘lishi mumkin, masalan, interpolyatsiyaning poligonal ma’lumotlarida aholini semirish darajasini to‘plangan ma’lumotlar asosida olinishi, maktab o‘kuvchilarining semirish darajasining qay darajada ekanligini taqqoslashimiz mumkin (37-rasm).

Interpolyatsiyaning tekislangan yuzasida geostatistikaning tuzuvchi operatsiyasi (Geostatistical Wizard) yaratilib, qaytadan yangi poligonlarni geografik qayta ishslash vositalaridan foydalangan holda quyidagi grafik bo‘yicha bajariladi.




**38-rasm.** Xaritada Janubiy Afrika Respublikasining havo harorati interpolyatsiya usuli yordamida meteostantsiya ma'lumotlari asosida tuzilgan

Berilgan nuqtalarning u yoki bu darajadagi kattaligini noaniq nuqtalarning noaniq qiymatlarini baholash fazoviy interpolyatsiya deyiladi. Masalan, ma'lum bir davlatning havo harorati xaritalarini yaratishda foydalanish mumkin. Siz uning hududidagi meteostantsiyalarning taqsimlanishini aniqlashingiz kerak. Fazoviy tahlil qilishda havo harorati bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish orqali butun davlat hududi bo'yicha havo haroratining qandayligini bilishimiz mumkin (38-rasm). Bunday interpolyatsiya ayrim vaqtvari statistik qatlama deb ham yuritiladi. Relef modeli, yog'in-sochinlar va qor qoplami kartasi, shuningdek, aholining zichligini bir qancha fazoviy tahlil natijalari orqali keltirishimiz mumkin.


Ayrim vaqtvari vaqtning va ma'lumotlar olingan nuqtalarning kamligi kuzatiladi. GATda interpolyatsiya orqali olingan ma'lumotlarni tasvir ko'rinishiga, piksellar, o'z navbatida, nuqtalardan olingan ma'lumotlar bo'yicha baholash ko'rsatkichlari bo'ladi. Masalan, balandlik ma'lumotlari asosida joyning raqamli relif modelini yaratishda, GPS yordamida nuqtalarni olish orqali, interpolyatsiya metodida olingan joyning ma'lumotlari asosida bajariladi. Olingan model boshqa modelni yaratishga asos bo'ladi va shu bilan birga tahlil qilish uchun ham ishlataladi.

Interpolyatsiyaning bir qancha usullari mavjud. Biz bu bobda juda keng tarqalgan usullardan: Teskari muallaq masofa IDW (ingl. Inverse Distance Weighting) va Noregulyar triangulyar tarmoq TIN (inglizcha Triangulated Irregular Networks) haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.



**39-rasm.** Interpolyatsiyaning teskari muallaq masofasi usulida (chapda) nuqtalardan olingan ma'lumotlarga asoslangan. Relefning asosiy ko'rinishi teskari muallaq masofa usuli yordamida nuqtaviy qatlamlar asosida dengiz sathiga nisbatan olingan. (Manba Rasm: Mitas, L., Mitasova, H. (1999))

Aytish joizki, interpolyatsiyaning IDW usulida ayrim kamchiliklar ham bor. Agar nuqtalar belgili darajada notekis tarqalgan bo'lsa, ma'lumotlarning aniqligi past bo'ladi (39-rasm). Bundan tashqari, faqatgina interpolyatsiyalangan qatlamlardan olingan ma'lumotlari maksimal yoki minimal darajada bo'lishi mumkin.




**40-rasm.** IDW interpolyatsiyasi natijalari asosida balandlik haqidagi ma'lumotlarning tarqalishi (qora rangdagi plyus belgisi bilan ko'rsatilgan)

GATda interpolyatsiya ikki o'lchamli rastrli qatlamdan iboratligi ko'rsatilgan. Quyidagi rasmda siz interpolyatsiyaning teskari aloqa tipik hulosalarini (IDW-interpolyatsii) GPS yordamida olingan nuqtalar balandligiga asoslangan ma'lumotlardan ko'rishingiz mumkin (40-rasm).

### 5.1.2. Triangulyatsion nomuntazam tarmoq

GAT muhitida triangulyatsion nomuntazam tarmoq yana bir interpolyatsiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Triangulyatsion nomuntazam tarmoqda joylashgan algoritm Delone triangulyatsiyasi deyiladi. U yaqin nuqtalardan tashkil topgan uchburchaklardan tuzilgan qatlamni yaratadi (41-rasm).




**41-rasm.** Tarmoq orqali olingan ma'lumotlar asosida tuzilgan Delone triangulyatsiyasi

## 5.2. Kriging

Geostatistikada kriging yoki Gauss jarayoni interpolyatsiya usuli bo'lib, qaysidir interpolyatsiya belgilari asosida modellashtirilib, Gauss jarayonida oldindan kovariatsiya bo'ladi. Uning asosiy farqi shundaki, bo'lakli yarim nominal splayn olingan belgilari optimizatsiya uchundir (42-rasm).

Duch keladigan holatlarda qo'yiladigan kriging yaxshi obyektiv oraliq belgilarini bashorat qiladi. Interpolyatsiya usuli boshqa andozaga asoslangan,

bunda asosan aniq oraliq belgilarini bermaydi. Bu usulda asosan fazoviy tahlil va kompyuter eksperimentidan keng foydalaniladi. Bu usul Kolmogorov – Vener usuli kabi juda muhim hisoblanadi.



**42-rasm.** Krigingda bir o‘lchamli ma’lumotlar – aniq intervallarda. Joylashish ma’lumotlarida maydonni ko‘rsatish. Kriging interpolyatsiyasi – qizil rang bilan tasvirlangan

Bu usulning nazariy asoslarini frantsuz matematigi Jorj Matheron Danie G.Krigingning magistrlik dissertatsiyasi asosida ishlab chiqqan.


### Ordinar kriging tushunchasi

Ordinar kriging modeli quyidagicha:

$$Z(s) = \mu + \varepsilon(s),$$

bunda  $\mu$  – noaniq konstanta hisoblanadi. Ordinar krigingga aloqador eng asosiy savollardan biri doimiy o‘rtacha belgilarga asoslanganmi?

Ayrim hollarda ilmiy asoslangan bo‘lsa, ba’zida interpolyatsiyaning oddiy metodi sifatida bo‘ladi. Quyidagi rasmda bitta fazoviy o‘lchovning misoli keltirilgan.



**43-rasm.** Bitta fazoviy o‘lchovning berilishi

Yuqorida ko‘rinishicha, ma’lumotlar balandliklarni bildirib, vodiy va tog‘lar orqali o‘tuvchi profil liniyalari olingan (43-rasm).

### Nazorat uchun savollar

1. Fazoviy interpolatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Teskari aloqa IDWni tushuntirib bering.
3. Kriging deganda nimani tushunasiz?
4. Triangulyatsion nomuntazm tarmoq tushunchasini izohlab bering.
5. Ordinar kriging degani nima?

### 6-bob. YUZALAR TAHLILI

## 6.1. Yuzalar tahlili tushunchasi

Yuzalar har bir nuqta butun hudud bo‘ylam qiyamatlarining cho‘zilish hodisasidir. Cheksiz to‘plam nuqtalarning qiyamatlari barcha yuzada birlamchi belgilar cheklangan to‘plamidan olinadi. Ular bevosita o‘lchashga asoslangan, masalan, relef balandligi qiymati va havo harorati yuzasi uchun; yuza uchun o‘lchash nuqtalari orasida o‘lchash qiyatlari interpolyatsiya yo‘li bilan olinadi. Yuzalar boshqa ma’lumotlar asosida matematik hisoblangan bo‘lishi mumkin, masalan, relef sirti ma’lumotlari asosida olingan qiyalik sirtlari yoki ekspozitsiyalar, shahar avtobus bekatigacha masofa yuzasi yoki jinoyatchilik faolligi kontsentratsiyasi yoki qo‘zg‘olonlar kelib chiqishini ko‘rsatuvchi yuzalar.

- **Yuzalar** TIN va rastr modellari, nuqtalar massivlari, izochiziqlar yoki gorizontallar yordamida berilishi mumkin; biroq GATda ko‘pincha TIN ma’lumotlari yoki rastr ma’lumotlari yuzalar tahlilida bajariladi.

- **Izochiziqlar** yuza bo‘yicha bir xil belgi bilan ko‘rsatilgan chiziqlar to‘plamidir. Ular ko‘pincha kartada yuzalarni yaratish uchun ishlatiladi.

- **Nuqtalar** yuzalar bo‘yicha muntazam yoki nomuntazam yuzalar bo‘yicha taqsimlanishi mumkin. Odatta, ular kiruvchi ma’lumotlar sifatida rastr yuzlarni yaratish uchun interpolyatsiya vositalari uchun kriging yoki triangulyatsiya uchun, TIN modellarida yoki rastr yuzalarini yaratish uchun foydalaniladi. Holbuki ular ba’zan yuzalarni kartografik tasvirlashda, masalan, shamol yo‘nalishi bayroqchalarida yoki eng arzon marshrutlar yo‘nalishini strelka bilan ko‘rsatishda foydalaniladi.

- **TIN** triangulyatsiya qirralari tarmog‘idan iborat bo‘lib, yuzaki qoplovchi qovurg‘a va tugunlar bilan aniqlanadi. TIN triangulyatsiyada boshlang‘ich tugun sifatida foydalanilgan ma’lum qiyatlar yoki baland nuqtalar asosida yaratiladi. Chiziqlar yuza shakli keskin o‘zgaradigan, masalan, tog‘ cho‘qqilari, yo‘llar yoki suv oqimlari, TIN modeliga chiziqning bukilgan joyi sifatida, hududning biror qiymatini ajratib turuvchi qismi to‘ldirilgan poligonlar tarzida berilishi mumkin.

Tugunlar orasida joylashgan chiziqli interpolyatsiya yordamida TIN modellari uchun eng yaqin tugunlar qiymat asosida olinishi mumkin. Tugunlar orasida joylashgan joylar uchun qiymatlar TIN-modellari uchun yaqin joylashgan tugunlar qiymatlari asosida chiziqli interpolyatsiya yordamida olinishi mumkin. Odatda, TIN-modellardan muhandislik loyihalari rellef sirtlarini tasvirlash uchun foydalaniladi, chunki balandlik nuqtalari belgilari balandlik qiymatlari keskin kamayadigan hududlarni aniq modellashtirish uchun notekis taqsimlangan bo‘lishi mumkin va nuqtalarning boshlang‘ich qiymatlari va ularni joylarda bog‘lash shu TIN modelida tugunlar sifatida saqlanadi.

• **Rastrlar** to‘g‘riburchakli yacheykalar (yoki piksellar) massivlaridagi yuzalarning shu qismida saqlanayotgan, ular qoplagan bo‘limidagi ko‘rinishidir. Har bir yacheyka faqat bitta qiymatni oladi, shuning uchun sirtni tasvirlash mumkin bo‘lgan detallashtirish darajasi, rastr yacheykalari o‘lchamlari bilan aniqlanadi. Rastrlardan ArcGIS da model yuzalarida ko‘proq foydalaniladi. Rastrli ma’lumotlar tuzilishi sodda bo‘lgani uchun rastr bo‘yicha (yoki boshqa rastrlar bilan taqqoslash), ya’ni yuzalarning boshqa ko‘rinishlariga nisbatan tezroq hisoblashga imkon beradi. Shuningdek, rastrlar suratga olinganlarni skanerlangan kartalar suratlarini va maxsus ma’lumotlarni, masalan, erdan foydalanish sinfi haqidagi ma’lumotlarni saqlashda foydalaniladi.

## 6.2. Yuzalarni yaratish

Geografik axborot tizimlarida asboblar yuzalarni vektorli obyektlardan yoki boshqa yuzalardan yaratish uchun vositalar mavjud. Yuzalarni yaratishning bir necha usuli mavjud, jumladan, o‘lchangan qiymatlar nuqtalarida saqlanadigan qiymatlar interpolyatsiyasi, muayyan hodisa yoki hududdagi berilgan obyektlar miqdoridan olingan obyekt turi sirt zichligini interpolyatsiya qilish, obyekt yoki obyektlardan sirt masofalarini (yoki yo‘nalishlarini) olish va boshqa sirt (relefning qiyalik rastri)dan yuzani yaratish.


### 6.3. Interpolyatsiya vositalari

Interpolyatsiya vositalari diskret tanlash asosida qiymatlarni, masalan, balandlik yoki kimyoviy kontsentratsiya qiymatlarini o‘lchash asosida uzluksiz yuzalarni yaratadi. Interpolyatsiyaning bir necha vositalari mavjud va ularning har biri yaratilayotgan yuzalarda ta’sir qiluvchi, ko‘plab parametrlarga ega.

Quyida misol tariqasida interpolyatsiyaning har xil usullari o‘sha kirish ma’lumotlaridan foydalangan holda turli chiquvchi yuzalarni yaratish mumkinligi keltiriladi.

Teskari muallaq masofasi (Inverse Distance Weighted, (TMM) va Tabiiy qo‘rg‘on interpolyatsiyaning oddiy vositalari hisoblanadi. Bu vositalar yaqin nuqtalar va ulargacha masofalar yordamida har bir yacheyka uchun yuzalarni baholaydi. OMM (IOW) yaratgan yuzalar uchun yaratilgan interpolyatsiyalangan qiymatlar yaqin joylashgan o‘rtacha o‘lchanigan qiymatlar to‘plami bo‘lib, vazni shundayki, barcha yaqin joylashgan nuqtalarga uzoqdagilarga nisbatan ta’siri ko‘proq (ya’ni vazn qiymati qancha kichik bo‘lsa, masofa shuncha katta bo‘ladi).


Quyida nuqta qiymatlari interpolyatsiya usuli (TMM) bilan olingan yuzalarga misol keltirilgan (44-rasm).



44-rasm. Interpolyatsiya usullari

Interpolyatsiya usulidan Tabiiy qo‘rg‘on vositasi ham interpolyatsiyaning TMM usuliga o‘xshash bo‘lib, nuqtalarning ma’lumotlari interpolyatsiyaning qiymatlari yuzalarning barcha yacheyskalari uchun aniqlanadi va «qiyoslanadi», shuningdek, TIN modeli kabi Delone triangulyatsiyasidan foydalaniladi. Tabiiy qo‘rg‘on usuli bo‘yicha interpolyatsiya ko‘plab ma’lumotlar to‘plamlari bilan interpolyatsiyaning boshqa usullariga nisbatan ishonchliroq ishlaydi.


Quyida interpolyatsiyaning Tabiiy qo‘rg‘on usulidan foydalanish bilan nuqta qiymatlari asosida olingan yuzalar misol tariqasida berilgan (45-rasm).



#### **45-rasm.** Interpolyatsiyaning Tabiiy qo‘rg‘on usulidan foydalanish

Mos ravishda, interpolyatsiyaning Splayn usuli va Trend usulida interpolyatsiyaning optimal yuzalari uchun polinomlar va kichik kvadratlar usuli yordamida tayanch nuqta orqali bajariladi. Splayn usulida interpolyatsiya matematik yuzalarni nuqtalar yordamida tekislash, ya’ni o’tkir bukilishlarni kamaytiradi; bu usul qiymatlari ravon o’zgaradigan, masalan, er osti suvlarining sathi yuzalarni modellashtirishda juda foydalidir.


Quyida (46-rasm) Splayn (Spline) usulidan foydalanib, interpolyatsiya nuqtalar qiymatlari bo‘yicha yaratilgan yuzalarga misol keltirilgan.



**46-rasm.** Splayn interpolyatsiya usuli yordamida yuzalarning yaratilishi

Trend interpolyatsiya usulida tuzilgan yuzalar katta hajmdagi tuzilishlarni ma’lumotlarda aniqlash uchun; interpolyatsiyalangan Yuzalar boshlang‘ich orqali kamdan-kam o’tadi.


Quyida (47-rasm) kulrang shaffof nuqtalar to‘plami uchun Trend interpolyatsiya usuli tasvirlangan hamda TMM (IDW) interpolyatsiya usulida yaratilgan yuzalarga misol keltirilgan.



**47-rasm.** Trend interpolyatsiya usulida nuqtalar to‘plami uchun shaffof kulrang rangda tasvirlanishi

Zichlik vositalari yuza birligiga to‘g‘ri keluvchi u yoki bu obyektlar miqdorini tavsiflovchi yuzani yaratishga imkon beradi. Siz ma’lumotlar asosida va urbanizatsiya darajasi hududini yoki kuzatishlar yuza zichligidan yovvoyi hayvonlar tarqalgan hududni kuzatishlar asosida ko‘rsatishda foydalanishingiz mumkin. Nuqta va chiziqli obyekt uchun zichlik vositalari mavjud.

Quyida interpolyatsiya usulida nuqtaviy va chiziqli obyektlar asosida olingan yuzalar zichliklariga misol ko‘rsatilgan (48-rasm).




**48-rasm.** Nuqtaviy va chiziqli obyektlar asosida interpolyatsiya usulida olingan yuzalar zichligi

Rastrga Topo maxsus ixtisoslashtirilgan vosita bo‘lib, relefning balandlik, gorizontallik, suv oqimlari, ko‘llar poligonlari lokal pasayishi va o‘rganilayotgan


poligon chegaralari kabi vektor ma'lumotlar komponentlari asosida gidrologik muhim rastrli yuzalarni yaratish uchun mo'ljallangan.

Quyida rastrga Topo interpolyatsiya usulidan foydalanish orqali joyning balandligi, daryo oqim chizig'i, izogipslar nuqtalari bo'yicha interpolyalangan yuzaga misol keltirilgan (49-rasm).



**49-rasm.** Rastrga Topo interpolyatsiya usulini foydalanib, joyning balandligi, daryo oqim chiziqlari, izogipslar, nuqtalar yordamida interpolyalangan nuqtalar bo'yicha yaratilgan yuzalar

Quyida (50-rasm) nuqtaviy, chiziqli va poligonal obyektlardan yaratilgan TIN-yuzalari misol qilib berilgan. Relefning balandligi qiymati ko'plab triangulyatsiya qirralaridagi tayanch nuqtalar qiymatidan olinadi. TIN-yuzalari shu tayanch nuqtalarni bukilish chiziqlari va suv havzalari bilan triangulyatsiya qilish orqali nazorat qilib turiladi.




**50-rasm.** Nuqtaviy chiziqli va poligonal obyektlardan yaratilgan yuzalari

TIN-

Geostatistik (Geostatistical) interpolyatsiya usuli asosida statistik tahlil yotadi. Statistik usullar oldindan belgilangan qiymatli yuzalarni yaratishga va oldindan hisoblab topilgan bu qiymatlarning ishonchlilik darajasini interpretatsiya qilishga imkon beradi. Kriging (Kriging) yuzalarni yaratishning kengaytirilgan texnologiya bo‘lib, u masofa va yo‘nalish bo‘yicha fazoviy korrelyatsion siljishga ega bo‘lgan ma’lumotlar bilan ishlaganda ko‘proq foydali bo‘ladi. Kriging ko‘proq tuproq ilmiy ishlarida va geologiyada qo‘llaniladi.

Quyida (51-rasm) Kriging yordamida nuqtalar qiymatlaridan interpolyatsiyalangan yuzaga misol keltirilgan.



**51-rasm.** Kriging yordamida nuqtalar qiymatlarini interpoyatsiya qilib yaratilgan yuzalar

#### 6.4. Yuzalar tahlili


Yuzalarni tahlil qilish yuzalarni kombinatsiyalashda va qayta sinflashda mavjud yuzalardan yangi yuzalarni ajratish kabi qayta ishlash turlarini o‘z ichiga oladi.

Muayyan tahlil vositalari yuzalardan, yuzalar kombinatsiyasidan yoki yuza va vektor ma'lumotlardan axborotlarni chiqarib oladi yoki qabul qiladi.

## 6.5. Relef tahlili


Rastr relef yuzalari tahliliga Qiyalik (Slere), Ekspozitsiya (Aspect), Yuvish (Hillshade), va Egrilik (Curvatura) kiradi.

Quyida (52-rasm) hozirgi va kelgusi rejadagi rastr balandliklari tasviri misol qilib keltirilgan.



**52-rasm.** Hozirgi va kelgusi rejadagi rastr balandliklari ko'rinishi  
Qiyalik (Slope) relef qiyaligini belgilab, odatda, yacheykalardan qo'shni yacheykalargacha maksimal o'zgaruvchanlik koeffitsientini hisoblaydi.

Quyida (53-rasm) rejadagi va kelgusidagi qiyalik yuzalar rastri yuzalariga misol keltirilgan.




**53-rasm.** Rejadagi va kelgusidagi rastr yuzalari qiyaligi

Ekspozitsiya (Aspect) har bir rastr yacheykalari uchun qiya yuzalar tekisligi joylashishi yo'nalishni hisoblaydi. Yuzalar ekspozitsiyasi, odatda, shu yuza qiyalik


olayotgan quyosh yorug‘ligi miqdoriga ta’sir etadi; shimoliy kengliklarda janubiy ekspozitsiyalarda shimoliy ekspozitsiyali hududlarga qaraganda iliqroq va quruqroq bo‘ladi.

Quyida (54-rasm) kelajakda va hozirgi rejada rastrli yuzalar ekspozitsiyasi misol tariqasida keltirilgan.



**54-rasm.** Hozirgi rejadagi va kelajakdagi rastrli yuzalar ekspozitsiyasi  
Yuvish (Hillshade) yuzani ma’lum bir joydagi ma’lum bir yorug‘lik manbaidan yoritish intensivligini ko‘rsatadi; bu vosita yuzaning qaysi qismi boshqa hududga nisbatan xiraroq bo‘lishini modellashtirishga imkon beradi.


Quyida (55-rasm) hozirgi rejada va kelajakda relef yuvilishi rastri misol keltirilgan.



**55-rasm.** Hozirgi rejada va kelajakda relef yuvilishi rastri

Egrilik (Curvature) qiyalik qiyaligini (yuzadan ikkilamchi hosila), bo‘lib, berilgan yuza qismi qavariq yoki botiq ekanligini aniqlaydi. Yuzaning qavariq qismi tog‘lar kabi yaxshi ko‘zga tashlanadi, suv oqimlari unda boshqa hududga yo‘naltiriladi. Yuzalarning botiq qismlari – masalan, kanallar yashirin va suv oqimlarini boshqa hududlardan qabul qiladi. Egrilik ikkita qo‘sishimcha variantda bo‘ladi – Plan (Plan) va Profil (Profile). Ular dastlab relefning eroziya va suv oqimlariga ta’sirini interpretatsiya qilish uchun foydalilanadi. Egrilik profili suv oqimining tezlanishiga yoki kamayishiga ta’sir etadi, u o‘z navbatida, eroziya va yotqiziqlarning to‘planishiga ta’sir ko‘rsatadi. Yassi egrilik oqimlarning qo‘shilishiga va tarqalishiga ta’sir qiladi.

Quyida (56-rasm) hozirgi va kelajakdagi egrilik rastrli yuzalariga misol keltirilgan.




**56-rasm.** Hozirgi va kelajakda egrilik rastrli yuzalarning berilishi

## 6.6. Ko‘rinish tahlili

Yuza qismlarining ko‘rinish tahlili uchun Ko‘rinish chizig‘i (Line of Sight) vositasi bir joy boshqa bir joydan ko‘rinadimi, qarash yo‘nalishi chizig‘ida joylashgan ikki pozitsiya orasidagi joylar ko‘rinadimi, yo‘qmi, ekanini aniqlaydi.

Quyida (57-rasm) Ko‘rinish chizig‘i vositasida tahlil qilishga misol keltirilgan. Chiziqning shimoliy oxirida turgan kuzatuvchi chiziq bo‘yicha joylashgan relefning yashil rangli qismini ko‘ra oladi, qizil rang bilan ko‘rsatilgan


relef qismini ko‘ra olmasligi mumkin. Bunday vaziyatda kuzatuvchi tog‘ning orqa tomonidagi olovni ko‘rishi mumkin emas.



**57-rasm.** Ko‘rinish chizig‘i vositasida tahlil qilish


Ko‘rinish tahlili kuzatish nuqtalari balandligini va kuzatilayotgan nuqtalar yoki yacheykalar balandligini aniqlashga imkon beruvchi siljishlar yoki surilishlarni quvvatlab turadi.

Quyida (58-rasm) ko‘rinish chizig‘i usuli yordamida tahlil qilishga misol keltirilgan bo‘lib, unda kuzatish joyining siljishi va siljishsiz tahlil natijalari taqqoslanadi. Chiziq bo‘yicha kuzatuvchi uchun ko‘rinadigan joylar yashil rangda, relef ortida qolgan ko‘rinmaydigan joylar qizil rangda berilgan.



**58-rasm.** Ko‘rinish chizig‘i usulida kuzatish joyi siljigan va siljimagan holdagi tahlil natijalarini taqqoslash

Siz kuzatish nuqtasining siljishidan binolar va chiqindilarni chiqarib yuborishni modellashtirishda foydalanishingiz mumkin (59-rasm).




**59-rasm.** Chiziqli ko‘rinish chizig‘i usulida binolarni modellashtirishda kuzatish nuqtasining siljishidan foydalanish

Kuzatish nuqtasining katta siljishidan foydalanganda kuzatilayotgan nuqtalar, hatto oraliq hudud nuqtalarining ko‘rinuvchanligi o‘zgarmasa ham, ko‘rinuvchan bo‘ladi.

Kuzatish nuqtasi (Observer Points) nuqtalar to‘plami sifatida belgilangan qaysi kuzatuvchilar u yoki bu berilgan rastrli yuza yacheykasini ko‘rishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Tahlil yordamida har bir yuza rastri yacheykasi va kirish nuqtalari to‘plami (yoki kirish chiziqlarni cho‘qqilari) uchun ushbu istalgan yacheykani qancha ko‘p kuzatuvchi ko‘rish mumkinligini hisoblash mumkin.

Quyida (60-rasm) bitta kuzatish kirish nuqtasidan Ko‘rinish tahlili yordamidagi tahlil keltirilgan. Kuzatuvchida erdan 50 metr baland bo‘lgan yong‘in o‘chirish minorasidan modellashtirish uchun siljishga ega bo‘ladi. Kuzatuvchiga ko‘rinmaydigan yacheykalar rasmida o‘ng tomonda qora rangda ko‘rsatilgan.



**60-rasm.** Bitta kuzatish nuqtasidan Ko‘rinish tahlili yordamidagi tahlil keltirilgan

Quyida (61-rasm) siz kelgusidagi kuzatish nuqtasini va relef yuzalarini ko‘rishingiz mumkin.



**61-rasm.** Kelgusidagi kuzatish nuqtasi va relef yuzalari

Tog‘ tizmalari ular ortida joylashgan vodiylarni to‘sib qo‘yadi (62-rasm).




**62-rasm.** Tog‘ tizmalari va cho‘qqilarining vodiylarni kuzatuvchidan yashirishi

Kuzatish nuqtasi (Observer Points) va Ko‘rinish tahlili (Viewshed) har bir kuzatuvchi ko‘rishi mumkin bo‘lgan yo‘nalish va masofani cheklashi, kuzatish va kuzatiluvchi nuqta uchun bir qator parametrlarni va siljishni belgilashga imkon beradi.

## 6.7. Hajm tahlili

Ba’zi analitik funktsiyalarda hajmlarni hisoblash uchun yuzalar haqidagi ma’lumotlardan asos sifatida foydalaniladi. Bu funktsiyalar yordamida TIN yuzalari yoki boshqa yuzalarning hamda rastrlar hajmi orasidagi farqlar hisoblanadi. Vositaga bog‘liq holda boshqa yuzalar TIN yuzalarida yoki ikkinchi rastrli hamda belgilangan balandlikda gorizontal tekislikda berilishi mumkin.

Quyida (63-rasm) suv havzasi oddiy darajada to‘ldirilgan relef yuzalari misol tariqasida berilgan. Siz Hajm vositasidan suv havzasi to‘lishiga yaqin bo‘lganda qo‘srimcha suv hajmini hisoblash uchun foydalanishingiz mumkin.



**63-rasm.** Suv sathi oddiy darajada to‘ldirilgan relef yuzalari

Yuzalar uchun hajm tahlilida (Surfacevolume) berilgan tepalikning gorizontal tekisligidan past yoki baland yuzalar hajmini hisoblash uchun foydalaniladi. Siz bu tahlildan suv hajmini hisoblash uchun daryoning qurishini va qaysi vaqtida to‘lish darajasini bilish uchun foydalanishingiz mumkin. Bu tahlil TIN-yuzalarida yoki rastr yuzalaridan foydalangan holda bajarilgan bo‘lishi mumkin. Chiqish hulosalari matn fayllaridan tashkil topgan bo‘lib, hajm va hudud yuzalarining yakuniy yuzasi, foydalanilgan parametrlaridan iborat.


Tepaliklar (botiqliklar) tahlilidan hisoblash uchun bitta hududdagi har bir yacheyka rastrini boshidan yoki ohridan hisoblash uchun foydalaniladi. Bu tahlil tepalik yoki chuqur qaziladigan arning hajmini, ya’ni yuza relefining o‘zgarishini hisoblashda foydalaniladi. Bu tahlil ikkita rastr bilan ishlaydi, natijalar bo‘lsa, ikkita qatlam orasidagi farq ko‘rinishida rastr yuzalari tarzida ko‘rsatiladi.

## 6.8. TIN dan ma’lumotlarni Chiqarish

TIN-yuzalarida TIN qirralari atributlari ko‘rinishidagi ekspozitsiya va qiyalik haqidagi ma’lumotlar saqlanadi. TIN-yuzalari uchun ekspozitsiya va qiyaliklarni olish o‘rniga faqatgina balandlik qiymatlari saqlanadigan relef modelining rastrlari ustida ishlangani kabi bu ma’lumotni qirralardan poligon to‘plamlariga chiqarish zarur. TIN Ekspozitsiya (TIN Aspect) va TIN Qiyaligi (TIN Slope) vositalari


ekspozitsiya va qiyalik bo'yicha ma'lumotlarni TIN dan chiqarib olib, bu ma'lumotlarni atributlar sifatida poligonal fazoviy obyektlar sinfiga qo'shadi.

64-rasmda ekspozitsiya ma'lumotlari va TIN relef modeli misol tariqasida keltirilgan.



**64-rasm.** Ekspozitsiya ma'lumotlari va TIN relef modeli

65-rasmda TIN relefni va undagi qiyaliklar haqidagi ma'lumotlar modeli misol qilib keltirilgan.




**65-rasm.** TIN relef modeli va undagi qiyaliklar ma'lumotlari

## 6.9. Izochiziqlarni chiqarish

Izochiziqlar (Contour) tahlili rastrli yuzalardan doimiy qiymatli chiziqlarini (izochiziqlarni) chiqarishga ruxsat beradi. TIN Izochiziqlari (TIN Contour) TIN-yuzalaridan fazoviy izochiziq obyektlari chiziqli sinflarini chiqarishga imkon beradi.

66-rasmda misol tariqasida undan olingan relef modeli va gorizontallar berilgan.



**66-rasm.** Relef modeli va gorizontallar

### Nazorat uchun savollar

1. Yuzalar deganda nimani tushunasiz?
2. Yuzalarni qanday yaratish mumkin?
3. Interpolyatsiya vositalarini tushuntirib bering.
4. Yuzalar tahlilini izohlab bering.
5. Relef tahlilini tushuntirib bering.
6. Ko‘rinish tahlili nima?
7. Hajm tahlilini tushuntirib bering.
8. TIN dan ma’lumotlarni chiqarish deganda nimani tushunasiz?

## **7-bob. KO‘P O‘LCHOVLI MA’LUMOTLAR TAHLILI**

### **7.1. Ko‘p o‘lchovli ma’lumotlar tahlili haqida umumiyl tushuncha**

Ko‘p o‘lchovli statistik tahlil har xil atributlarning o‘zaro munosabatlarini tadqiq qilishga imkon beradi. Ko‘p o‘lchovli tahlilning ikki turi mavjud, tasniflash (nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan) va asosiy komponentni tahlil qilishdir.

Tasniflash maqsadi – barcha tadqiqot hududlarini yacheyka sinfiga yoki kategoriyaga taqsimlash.

